



Boqijon To'xliyev

5-SINF ADABIYOT FANIDAN DARS ISHLANMA NAMUNALARI




Boqijon To‘xliyev

5-SINF ADABIYOT FANIDAN DARS ISHLANMA NAMUNALARI

**(Audio va 3D formatidagi
materiallar bilan)**

**Toshkent
2019**

35279



UO‘K: 51(076.3)(075.3)

KBK: 22.1v6

B-45

To‘xliyev, Boqijon

5-sinf “Adabiyot” fanidan dars ishlanma namunalari [Matn]: /
B. To‘xliyev. – Toshkent: “BAYOZ”, 2019. – 192 b.

Ushbu kitob umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinflaridagi “Adabiyot” darsligi asosida yaratilgan dars ishlanmalaridan iborat. Unda zamonaliv pedagogik texnologiyalarning qo‘llanishiga alohida e’tibor berilgan.

Qo‘llanmani tuzishda fil. f. doktori, dotsent X. Hamroqulova, f.d.n. dotsenti Sh. Ergasheva hamda D. To‘xliyevalar ishtirok etishgan.

3D grafikasi ijrochilari:

Rasuljon Atamurodov va Aziz Rayimjonov

Qo‘llanma I-OT-2019 – 7 “Umumiyl o‘rta ta’lim maktablari uchun mo‘ljallangan 3D tizimli interaktiv o‘quv-metodik qo‘llanmalarni yaratish va joriy qilish (5-sinf “Adabiyot”i uchun)” grant loyihasi doirasida bajarilgan.

Kitob TDSHU Ilmiy kengashida (25.11.2019 y. 4-sonli qaror) muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K: 51(076.3)(075.3)

KBK: 22.1v6

ISBN 978-9943-5624-7-9

© “BAYOZ”, 2019.

© B. To‘xliyev, 2019.

MUQADDDIMA O‘RNIDA

Mazkur tadqiqot “I-OT-2019-7 “Umumiy o‘rta maktablar uchun mo‘ljallangan 3D-tizimli interaktiv o‘quv-metodik qo‘llanmalarni yaratish va joriy qilish (5-sinf “Adabiyot” fani uchun)” mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tayanch so‘zlar: Adabiyot, 5-sinf, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, 3D tizimi, interaktiv, o‘quv-metodik qo‘llanma, ma’naviyat, matn, lug‘at, izoh, dars ishlanmasi.

Tadqiqot maqsadi – Umumiy o‘rta maktablarining 5-sinflari uchun “Adabiyot” faniga oid Umumiy o‘rta maktablar uchun mo‘ljallangan 3D-tizimli interaktiv o‘quv-metodik qo‘llanmalarni yaratish va joriy qilish (5-sinf “Adabiyot” fani uchun)” .

Adabiyot darslari, demakki, shu sinfga mo‘ljadllangan darslik ham o‘quvchilarimizning bu boradagi dunyoqarashlarining shakllanishi, ularning ijodiy fikr egasi bo‘lishi, ma’naviyatlarining boy hamda orzularining mamlakat taqdiri bilan uyg‘unlashtirishga intilib borishlari yo‘lida munosib hissa qo‘sishga safarbar etilgan. Boshqa ko‘plab o‘quv predmetlari qatorida maktab darslikldarining ham o‘z zimmasiga yuklangan vazifalar bor. Shunga qaramasdan, bugungi kuninng tez va shiddatkor ruhi, butun dunyo globallashuv jarayonlarining jamiyatimiz hayotiga ham muntazam tarzda, kuchli sur’atlar bilan kirib kelayotgani o‘quvchilarimizning ushbu jarayondlarga moslashishi va munosib tarzjda javob berishlari uchun qiyinchilik tug‘dirayotgani ham sir emas.

Bugungi ta’lim tizimi O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan yoshlarimizni, bugungi o‘quvchilarni ertangi kun uchun munosib vorislar sifatida tayyoprlashni bosh maqsad qilib olgan. Bu maqsad hukumatimizning ko‘plab hujjatlarida, jumladan, muhtaram Prezidentimizning nutqlarida, ma’ruza va chiqishlarida, farmon va qarorlarida o‘zining munosib aksini topgan.

Bularning barchasi darslik va o‘quv qo‘llanmalarimizga yangicha nazar bilan qarashni, ularni zamonamiz talablariga mos va uyg‘un darajaga ko‘tarishni taqazo etmoqda.

Darsliklarda an'anaviy yondashuvlarning ustuvorligi deyarli barcha sinflar kesimida kuzatiladi. Garchi ularning aksariyatida “mutlaqo yangi va zamonaga mos kuzatuvlar” berilishi haqidagi mulohazalar bo‘lsa-da, amalda, baribir, yangilanishsha muhtoj bo‘lgan tutum va yo‘sirlarning ustuvorligi ko‘zga tashlanadi.

Ishning natijalari va ilmiy yangiligi.

Tadqiqotda mavjud tajribalarning umumiy holatini tahlil qilishga, yaxshi va munosib tajribalarni qo‘llab-quvvatlagan holda, mavjud nuqsonlarni ko‘rsatishga, ularning yuzaga kelish sababalri va bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatishga harakat qilingan.

Muhimi, adabiyot darslariga 5-sinflar misolida yangi – **3D-tizimini** joriy etishga ilk marta amaliy harakat qilingan. Tadqiqotda bu tizimining mohiyati, uni adabiyot darslariga joriy etishdagi murakkabliklar va o‘ziga xosliklar haqida mulohaza yuritilgan. Bu boradagi ilk qadamlarning o‘ziga xos xususiyatlari ijtimoiy-gumanitar sohalarda ham o‘zining ijobji va samarali natijasini bera olishi amaliy jihatdan isbotlab berilgan.

Amalga oshirilgan ishlarni shunday guruhlashtirish mumkin:

- Darslik materiallarini 3D shakliga o'tkazish uchun texnik topshiriqlar ishlab chiqildi.

- Ayrim mavzular uchun 3D formatidagi ishlanmalar tavsiya etildi;

- Darslikni boyitish uchun yordam berishi mumkin bo'lgan animatsion materiallar tayyorlandi.

- 5-sinf uchun mo'ljallangan video materiallar to'plandi;

- Darslikdagi adabiy materiallarining to'liq audio shakli yozib olindi va dars ishlanmalariga ilova qilindi (bu imkoniyati cheklangan ayrim o'quvchilar uchun katta yordam bo'la oladi);

- O'qurvilarni ijodiy fikrlashga undaygidan savol va topshiriqlar iishlab chiqidi.

- Test va baholar tizimi takomillashtirildi. Bunda kompyuter texnikasidan foydalanishga ustuvor mavqe ajratildi. Ilk marta rasmi testlar tuzib chqildi.

- Har bir adabiy janrni tahlil qilishga oid amaliy tavsiyalar tizimi yaratildi.

Ishning asosiy, konstruktiv, texnologik va texnik foydalanish bo'yicha xususiyatlari.

Windows forma, Blinder, Paint, Power Point, Substfnce designer, Vieditor 3D dasturlari yordamida 3 d materiallar, Photoshop va boshqa tasviriy va audio tahrir dasturlaridan foydalanildi, qo'llinmaning umumiy ko'rinishi va ishlanma namunalari yaratildi. Darslarning moodle tizimidagi test yaratish imkoniyatidan foydalanib ishlanmalarning topshiriqlari yaratildi.

Dasturiy ta'minot, kompyuter, planshet, mobil telefonlar kabi axborot texnologiyalari vositalari orqali bir xilda foydalanish imkoniyatini beradi.

Amaliyotga joriy etilganlik darajasi va tavsiyalar. Alovida ta'kidlash joizki, davlat ta'lif standartida, o'quv dasturlarida 5-va 6-sinflar uchun "Ifodali o'qish" kursini joriy etishga oid talablar qo'yilgan. Shunga qaramay, bu borada shu paytgacha biror amaliy harakat amalga oshirilmagan edi. Loyiha a'zolari mana shu murakkab vazifani ham ado etishdi. Tadqiqot davomida "Ifodali o'qish"ga oid ilk o'quv qo'llanmasi yaratildi. U tajribali o'qituvchilar nazaridan o'tkazildi, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi qoshidagi Ta'lif markazining 2019-yil 26-sentyabrdagi 3-sonli Kengashida **muhokama** qilindi va **amaliyotga tavsiya etildi (ilovada)**.

Loyihani bajarish muddatlari davomida o'n bitta monografiya, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, shuningdek, muammoga oid ilmiy va metodik maqolalar yozildi. Tadqiqot natijalari qator xalqaro hamda Respublika miqyosidagi anjumanlarda ma'ruza va tezislar tariqasida **aprobatsiyadan** o'tkazildi. Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qo'qon shahridagi oliy ta'lif muassasalari, malaka oshirish institutlari talaba va tinglovchilari, umumiy o'rta ta'lif maktablari, Ibrat maktabining o'qituvchi va murabbiylari, shuningdek, o'quvchilar bilan darslar, suhbat va treninglar o'tkazildi.

Mazkur tajribalar faqat 5-sinflar uchun emas, balki yuqori sinflarda ham mazkur tizimning amaliyotga qo'llanishi uchun yo'l ochib beradi.

Natijalarning amaliyotga tatbiq etilish darajasi: Loyiha ishtirokchilari tomonidan 1 ta monografiya, 1ta darslik, 2 ta

o‘quv qo‘llanmasi, xalqaro jurnallarda (4) va mahalliy jurnallarda (5ta) va ilmiy to‘plamlarda (1ta)maqola, va Respublika miqyosidagi anjumanlarda (8 ta) tezislar e’lon qilindi.

Joriy etish sohalari: Umumiy o‘rta ta’lim maktalbalrining 5-sinf o‘quvchilari va o‘qituvchilari.

Iqtisoiy samaradorlik yoki ijtimoiy ahamiyati. O‘qituvchilar uchun vaqtini tejash, dars samaradorligini oshirishga, o‘quvchilar uchun esa mashq‘ulotning qiziqarliligi va ijodiy imkoniyatnin kengaytirish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekting kelgusi istiqbolli yo‘nalishlari.

Kelgusida mazkur natijalarни umumiy o‘rta ta’lim maktablarining keyingi, 6-11 sinflariga tatbiq etish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Qo‘lingizdagi kitob yangi tajribalarning ilk qaldirg‘ochi. Unda kamchilik va nuqsonlarning bo‘lishi tabiiy. Sizning fikrmulohazalaringiz biz uchun har doim mo‘tabar bo‘lib qoladi.

MAVZU. ADABIYOT – SO‘Z SAN’ATI

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: Adabiyot fani haqida tushuncha berish, uning asosiy maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish



Tarbiyaviy: o‘quvchilarga mutolaa madaniyati, so‘z qadri va qudratini tushuntirish, kitobxonlikka targ‘ib qilish

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so‘z boyligini oshirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “To‘g‘risini top”, “Guruhlarga ajrat” usuli, kichik guruhlarda ishslash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- d) ma’naviyat daqiqasi:

Adabiyot yashasa, millat yashaydi.

(Cho‘lpon)

Doskaga ushbu hikmatli so‘z yoziladi. O‘quvchilar hamda o‘qituvchi hamkorligida o‘qib tahlil qilinadi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Dars “Aqliy hujum” metodi asosida boshlanadi. O‘quvchilarga quyidagi savol bilan murajaat qilinadi:



Darsning borishi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni darslik materiali bilan tanishtiradi:

“To‘rt yildan buyon mактабга qatnab bilib oldingizki, одам боласи о‘зининг fikrlay olishi bilan boshqa mavjudotlardan farq qiladi. u nafaqat fikrlaydi, balki bu fikr-o‘ylarini so‘zlar orqali boshqalarga ham bildira oladi.

Oдamlar fikrlar ekan, bir narsani boshqasiga solishtiradi. Mana shu solishtirish paytida obrazli (timsolli) fikrlash hodisasi yuz beradi.

Ertaklarda mana shunday obrazli fikrlashning rang-barang ko‘rinishlari aks etadi. Ertak qahramonlari ko‘z oldingizda go‘yo jonlanadi, turli sarguzashtlarni boshdan kechiradi. Voqealar shunday qiziqarli hikoya qilinadiki, o‘zingizni xuddi ularning ishtirokchisidek his qilasiz.

Demak, adabiyot insonning orzu-xayoli, umid va armonlarini badiiy so‘z yordamida ifoda etishi ekan.

Adabiyotning asosiy qurnli esa badiiy so‘z hisoblanadi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning qo‘shiqqa aylanib ketgan «Vatanim» nomli sheridagi quyidagi misralarni eslaymiz:

Shodon kumin gul otgan sen,

Chechak otgan izimga,

Nolon kumin yupatgan sen,

Yuzing bosib yuzimga.

Singlim deymi,

Onam deymi,

Hamdard-u hamxonam deymi,

Oftobdan ham o‘zing mehri

Ilig ‘imsan, Vatanim.

Vatanni onaga qiyoslashlarini, uni «ona Vatan» deb atashlarini ko‘p eshitgansiz. Shoир o‘z she’rida mana shu tushunchaga go‘yo jon baxsh etadi. Vatan suratini farzandiga mehri cheksiz ona siymosida chizadi.

Kimdir ko‘nglingizni og‘ritganida, ko‘zlaringizga yosh to‘lib ko‘chadan kirganingizda onangiz sizni qanday yupatganini eslang. Shoир uchun Vatan ham xuddi shunday -

dunyo tashvishlari uni «nolon» holga solganida - qalbini tirmaganida Vatan yuzlarini uning yuziga bosadi, yupanch beradi.

Bunday misralar bag‘riga jo bo‘lgan badiiy go‘zallik sizning ham ko‘nglingizga ko‘chishi tabiiy. Go‘zallikdan bahra olarkansiz, Vatanga bo‘lgan mehringiz yanada ortadi, unga munosib farzand bo‘lish istagingiz kuchayadi.

Adabiy asarlar faqat badiiy didingizni o‘stiribgina qolmay, bilimlaringizning kengayishiga, boyishiga ham xizmat qiladi.

Masalan, tarixiy mavzuda yozilgan badiiy asarlarni o‘qib, ko‘plab xalqlar o‘tmishini yaqqol ko‘z oldingizga keltirasiz. Bundan ming yillar ilgari yashagan ajdodlaming turish-turmushi, orzu-o‘ylari, hayotiy mashaqqatlarini his qilasiz.

Badiiy asarlar insonning ma’naviy kamol topishida beqiyos ahamiyatga ega. Odam onadan tug‘ilibiq o‘z-o‘zidan ma’naviyatli, ma’rifatli bo‘lib qolmaydi, to‘g‘rimi? Kishi bu fazilatlarga tinim- siz o‘qib-o‘rganish, ustozlar ta’limini olish, hayotni chuqur kuzatib, ibratli tajribalar to‘plash orqaligina ega bo‘ladi. Mana shu jarayonda adabiyotga murojaat qilish nihoyatda katta samara beradi.

Poytaxtimiz Toshkentning markazida joylashgan O‘zbekiston Milliy bog‘iga ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy haykali o‘rnatalgan. uni o‘rab turgan moviy gumbaz ostiga shoirning quyidagi misralari bitilgan:

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig‘,

Yor o‘lung bir-biringizgaki, eruryorlig‘ ish.

Shoir tomonidan bu misralar yozilganiga besh yildan ortiqroq vaqt o‘tdi. Bugungi kunda televizor orqali dunyoning hali u, hali bu chekkasida bombalar portlayotganiga, o‘nlab, yuzlab kishilar bir-birlarini qurbon qilayotganiga guvoh bo‘lasiz. O‘sha janglar, janjallar oqibatida azob chekayotgan begunoh odamlar ham xuddi sizdek tirik jon ekanini o‘ylarkansiz, Navoiy bobomiz naqadar haq ekanini ich-ichingizdan his qilasiz. Toki dunyoda kishilarning bir-birlariga

dushmanlik qilishlari to‘xtamas ekan, shoirning bu tashvishli chaqirig‘i o‘z ahamiyatini saqlab qolishi aniq.

Adabiy asarga bir qiziqib qolgan kishini undan ayirib olish nihoyatda qiyin. Shaharlik bolalar avtobus yoki metroda o‘qishga ketayotganida, qishloqlik o‘quvchilar esa anhor bo‘ylari yoki dala-dashtlarda boshini kitobdan ko‘tarmay o‘tirgan aka-opalarini ko‘p uchratgan bo‘lsalar kerak. Qiziqib ko‘ring-a, ular qanday


kitob o‘qishayotgan ekan. Ishonavering, ularning aksariyati badiiy kitoblar bo‘ladi!

Xo‘sh, nega badiiy asarlar kishilarni bunchalik qiziqtiradi?

Gap shundaki, bu kitoblarda xuddi sizdek, aka-ukalaringiz, opa- singillaringiz, ota-onangizdek odamlaming taqdiri hikoya qilinadi. Dunyoda esa insonning taqdiridan qiziqroq narsaning o‘zi yo‘q.

E’tibor bering!

Ertaklardagi qushlar-u hayvonlar ham xuddi odamdek gapirgani, bir-birlari bilan muomala qilgani, nimalarnidir talashib-tortishgani-yu, nimadandir ayrilib jazolangani uchun sizga qiziqarlidir. Adabiy asarlar turli-tuman shaklda, uslubda yaratiladi



Haqiqiy adabiyot vaqtida ham, hududda ham chegara bilmaydi. Ya’ni qachon va qaysi tilda yaratilmasin, ezgulikni, o‘lmas go‘zalliklarni tarannum etgan asarlar barcha avlod va xalqlarga birdek qadrli bo‘lib qolaveradi. Deylik, «Alpomish» yoki «Odisseya» (qadimgi yunon adibi Homer asari) dostonlari yaratilganidan beri oradan ming yillar o‘tgan bo‘lsa-da, halihamon o‘quvchilarni hayajonga solaveradi. Nemis shoiri Gyote asarlarini o‘zbeklar qanchalik qiziqish bilan mutolaa qilsalar, Bobur Mirzoning «Boburnoma» kitobini nemislar shunchalik diqqat bilan o‘qib-o‘rganadilar.

Siz, muhtaram o‘quvchi, bugundan boshlab mana shunday muhim va mo‘tabar san‘at turining mo‘jizakor olamiga sayohatga chiqasiz. Yozuvchi, shoirlar hayoti hamda ularning asarları bilan tanishish orqali o‘zbek va boshqa qator xalqlarning madaniyati, urf-odatlarini yaqindan bilish imkoniyatiga ega bo‘lasiz”.

O‘qituvchi boshlang‘ich sinfda o‘rganilgan adabiy materiallar, ta‘til paytida o‘qilgan kitoblar yuzasidan suhbat tashkil qiladi. O‘quvchilarga 1-4



sinflarda o‘qigan asrlarini esga olish hamda quyidagi jadvalni to‘ldirishni taklif qiladi:

She’r Ertak Maqol Topishmoq Rivoyat

Savol va topshiriqlar:

1. Ular qaysi xususiyatiga ko‘ra bir-biriga o‘xshaydi?
2. Qaysi jihatlariga ko‘ra bir-biridan farq qiladi?
3. Ulardan qaysi biri har doim bir xil boshlanadi?
4. Bir mavzuga turli janarda yozilgan asarlarni esga oling
(Ona, vatan, kitob)

II. Mustahkamlash:

1. Hozirga qadar o‘qigan adabiy asarlardan qaysi biri sizga eng kuchli ta’sir qilgan? Bu ta’sirning sababi nimada deb o‘ylaysiz?

2. Ko‘chalar, metro bekatlari, teatrlar, turli davlat mukofotlarining ko‘pchiligi shoirlar, yozuvchilar nomiga qo‘yilishining sababi nimada ekan?

3. Badiiy asar bilan o‘qituvchingiz darsi o‘rtasida qanday o‘xhash va farqli tomonlar bor? Fikringizni aniq misollar bilan tushuntirishga harakat qiling.

4. Adabiyot kishining didi, axloqi, bilimlari boyishiga kuchli ta’sir ko‘rsatishini biror asar misolida aytib bering.

5. Adabiyot daftaringizga ulug‘ kishilarning so‘z haqida, adabiyot va kitob o‘qishning ahamiyati to‘g‘risida aytgan hikmatlaridan beshtasini topib yozib keling va sinfdoshlariningizga o‘qib bering.

6. Quyida keltirilgan adabiy turlarga oid janrlarni topib yozing:

She’riyat	Nasr	Dramaturgiya

IV. Uyga vazifa. Darslikda berilgan savol va topshiriqlarni bajarish.

MAVZU: MAQOLLAR. NAZARIY MA'LUMOT

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: maqol haqida nazariy ma'lumot berish. O'zbek xalq maqollari bilan tanishtirish

Tarbiyaviy: maqollar vositasida o'quvchilarda vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, do'stga sadoqat, mehr-oqibat, ilm olishga rag'bat kabi tuyg'ularni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so'z boyligini oshirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalaniladigan usullar: "Aqliy hujum", "To'g'risini top", "Suratlar so'zlaganda"usuli, kichik guruhlarda ishslash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog'ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- d) ma'naviyat daqiqasi;

Otalar so'zi – aqlning ko'zi (Maqol)

Doskaga ushbu maqol yoziladi. O'quvchilar hamda o'qituvchi hamkorligida o'qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so'rash:

"Adabiyot – so'z san'ati" mavzu yuzasidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o'quvchilar qanday bajargani tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Dars “Aqliy hujum” metodi asosida boshlanadi. O’quvchilarga quyidagi savol bilan murajaat qilinadi:



1. Siz qanday maqollarni bilasiz?

2. Darslikda berilgan quyidagi ma'lumotni o'qing va o'z mulohangizni bildiring.

E'tibor bering!

Maqol ota-bobolarimizning uzoq yillar davomida ko'rgan kechirganlari, tajribalari asosida yuzaga kelgan xulosalaridir.

Maqol ibratli so'zdir. Shunday so'zki, so'zga husn beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin, ta'sirchan qiladi. Shuning uchun ham maqol odamlar nutqida har doim hamroh bo'ladi. Kimki uni ko'p ishlatsa, o'shaning nutqini shirali deydilar va diqqat bilan eshitadilar.

3. Quyidagi ma'lumotni o'qing va o'z fikringizni bildiring.

Ko'plab maqollarda ichki qofiya bo'ladi. Masalan, «Ona yurting omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas» maqolida «omon» bilan «somon» o'zarlo ohangdosh, ya'ni qofiyadoshdir. Shu jihatdan ular topishmoqlarga o'xshab ketadi. Masalan, «Pak-pakana bo'yи bor, yetti qavat to'ni bor», – desak, bu yerda ham «bo'yи» va «to'ni» so'zlar qofiyadosh. Shunga qaramay, u maqol emas. Chunki unda xulosa yo'q. Hukm yo'q. Unda sirlilik bor. Unda hamma so'zlar bir narsani bekitishga qaratilgan. U narsanining belgilari berilyapti, xolos. Maqolda esa, aksincha, xulosa beriladi.

4. O‘quvchilarga ikki xil maqol taqdim etiladi:

Oltovlon ola bo‘lsa, Og‘zidagini oldirar. To‘rtovlon tugal bo‘lsa, Tepadagini endirar.	«Qazisan, qartasan, axir aslingga tortasan»
Yaxshi bilan yursang, Yetarsan murodga. Yomon bilan yursang, Qolarsan uyatga.	«Olmaning tagiga olma tushadi», «Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi»

Ushbu maqollarga diqqat qiling.

Ularning qanday farqi bor?

Qaysi birida qofiyadosh so‘zlar qo‘llangan?

She’riy yozilgan maqollarni har bir qatorida nechtadan
bo‘g‘in bor?

5. Dasrlikda berilgan maqollardan namunalarni o‘qing va
ularni ushbu jadvalga joylashtiring.

O‘qituvchi maqollarning xilma-xil mavzularga ega
ekanligini aytadi va jadvalga e’tiborni tortadi.



6. Quyidagi maqollardagi qaysi so‘zlar ko‘chma ma’noda qo‘llangan? Ularning tagiga chizing.

Daraxtni yer ko‘kartiradi,
Odamni el ko‘kartiradi.


Ona yurting omon bo‘lsa,
Rangi ro‘ying somon bo‘lmas.

El qo‘risang, o‘zarsan,
Qo‘rimasang, to‘zarsan.

Ko‘pdan quyon qochib qutulmas.

Bo‘linganni bo‘ri yer,
Ayrilganni ayiq yer.

352-79



IV. Mustahkamlash.

1-topshiriq. Maqollarni mavzusiga ko‘ra guruhlarga ajrating. (Quyidagi maqollar aralash tarzda beriladi. O‘quvchilar ularni 5 guruhga ajratishi lozim)

VATAN HAQIDA	ILM HAQIDA	DO‘STLIK HAQIDA
Ona yurting – ----- oltin beshiging.	Bilim baxt keltirar.	Aybsiz do‘st axtargan do‘stsiz qolar.
O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, O‘z yurtingda gado bo‘l.	Ilmsiz – bir yashar, Ilmlı – ming yashar.	Do‘st achitib gapirar, Dushman – kuldirib.
Yeridan ayrilgan yetti yil yig‘lar, Elidan ayrılgan o‘lguncha yig‘lar.	Bilagi zo‘r birni yiqrar, Bilimi zo‘r mingni yiqrar.	Do‘st do‘stni kulfatda sinar.
Bulbul chamanni sevar, Odam – Vatanni.	Kitob – bilim manbayi.	Do‘sting ming bo‘lsa ham oz, Dushmaning bir bo‘lsa ham ko‘p.
Daraxtni yer ko‘kartiradi, Odamni el ko‘kartiradi.	Ilm – dilning chirog‘i, Maktab – ilm chorbog‘i.	Sinamagan otning sirtidan o‘tma!

AHILLIK, HAMJIHATLIK HAQIDA

Bo'linganni bo'ri yer,
Ayrilganni ayiq yer.

Birlashgan o'zar,
Birlashmagan to'zar.

Yolg'iz otning changi
chiqmas, Changi
chiqsa ham, dong'i
chiqmas.

Oltovlon ola bo'lsa,
Og'zidagini oldirar.
To'rtovlon tugal bo'lsa,
Tepadagini endirar.

ODOB-AXLOQ HAQIDA

Izzat tilasang, ko'p
dema, Sihat
tilasang, ko'p yema.

Kattaga hurmatda bo'l,
Kichikka izzatda bo'l!

O'ynab gapisang ham,
o'ylab gapir!

Avval o'yla, keyin
so'yla!

Sayoq yurgan tayoq
yeydi.

2-topshiriq.

Maqollarni rasm asosida o'qing. O'quvchilar maqollarda tushirib qoldirilgan so'zlar o'rniga mos rasmlarni qo'yishi lozim.

1. Bo'linganni yer,
Ayrilganni yer.

2. tor bo'lsa ham, ko'ngling keng bo'lsin!

3. Boshingga kelsa ham, rost so'zla!

4. izidan qaytmas,
Yigit – so'zidan.

5. Ona bilan bola – bilan

Rasmlar:



3-topshiriq. Maqolning davomini belgilang.

1. Tilga ixtiyorsiz –

O'tirgan – bo'yra.

2. Yurgan – daryo,

Elga e'tiborsiz.

3. Duo bilan el ko'karar,

Birni ko'rib, shukur qil

4. O'ylamay qilingan ish,

Yomg'ir bilan yer
ko'karar.

5. Birni ko'rib, fikr qil,

Boshga keltirar
tashvish.

V. Uyga vazifa. Darslik materiallarini o‘qish. 10 ta maqol yod olish. Darslikda mavzu yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarni bajarish.

MAVZU. TOPISHMOQLAR. NAZARIY MA’LUMOT

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: topishmoqlar haqida nazariy ma’lumot berish. O‘zbek xalq topishmoqlari bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: topishmoqlar vositasida o‘quvchilarda o‘zaro hurmat, bir-birini tinglash, shoshmashosharlikka yo‘l qo‘ymaslik kabi sifatlarni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so‘z boyligini oshirish, chaqqonlik, uddaburonlikka undash.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “To‘g‘risini top”, “Guruhlarga ajrat”usuli, “Venn diagrammasi”, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

a) salomlashish

b) davomatni aniqlash;

d) ma’naviyat daqiqasi:

Yetti o‘lchab – bir kes. (Maqol)

Avval o‘yla, keyin so‘yla. (Maqol)

Doskaga ushbu maqollar yoziladi. O‘quvchilar hamda o‘qituvchi hamkorligida o‘qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so‘rash:

“Maqollar” mavzu yuzasidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o‘quvchilar qanday bajargani tekshiriladi, o‘quvchilar yodlagan maqollarni aytib beradi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Dars “Aqliy hujum” metodi asosida boshlanadi.

O‘quvchilarga quyidagi savol bilan murajaat qilinadi:

1. Siz qanday topishmoqlarni bilasiz?
2. Darslikda berilgan quyidagi ma’lumotni o‘qing va o‘z mulohangizni bildiring.

Topishmoq – hammabop ommaviy janr. Ularda xalq hayotining barcha qirralari – turmush madaniyati, urfatlar va boshqa jihatlar, inson va uni o‘rab olgan olam o‘xshatishlar, taqqoslashlar savollar vositasida ifodalanadi. Topishmoqda yashirin ma’no ko‘pincha majoziy shaklda keltiriladi, aniqrog‘i, narsa nomi bironbir qush, hayvon, buyum, o‘simgilikka qiyoslangan holda beriladi. Topishmoqning javobini topmoqchi bo‘lgan kishi unda keltirilgan ko‘chma belgilarini xayolida mantiqan solishtiradi va uning hayotdagi belgilarga to‘g‘ri kelishiga qarab javobini topadi.



2. Jadvaldagи topishmoqlarning bir-biridan qanday farqi bor? Fikringizni bildiring.

Kunduz kuni o'chirib,
Tunda yoqa olmaysan.
Yoniga bo'lmas borib,
Usiz yashay olmaysan.

Otasi uzun xo'ja,
Onasi yoyma xotin,
Bolasi shirin-shakar.
(Tok, bargi, mevasi)

(Quyosh)



Rasm SEQ Рисунок 1*
ARABIC 2 Topishmoq uchun

Yer tagida oltin qoziq. *(Sabzi)*

3. Ushbu topishmoqlar bir-biridan qanday farq qiladi?

«Qoziq ustida qor turmas»

«Bir daraxtda o'n ikki shox, har shoxda o'ttiz yaproq – bir yog'i qora, bir yog'i oq» topishmog'ining javobi yil (daraxt), o'n ikki oy (shox), o'ttiz kun (o'ttiz yaproq), o'ttiz kecha va kunduz (bir yog'i qora, bir yog'i oq).



Rasm 3 Topishmoq uchun
3 D namoyish



IV. Mustahkamlash.

1-topshiriq. O‘quvchilarga turli narsalarning rasmi taqdim etiladi. O‘quvchilar ularning belgi va xususiyatlaridan kelib chiqib topishmoq tuzishi lozim

Rasmlar:



2 -topshiriq. Topishmoqlarni mavzusiga ko‘ra guruhlarga ajrating. Ushbu topshiriqda o‘quvchilarga turli mavzudagi topishmoqlar aralash tarzda beriladi. O‘quvchilar ularni quyidagicha guruhlarga ajratib berishi lozim.

POL'ZIKINLARI VA MAJZAVOTLAR	TABIAT HODISALARI	ODAM VA UNING A'ZOLARI	HAYVONOT OLAMI
Oizil qiz yer ostida, Sochlari yer ostida. (Sabzi)	Kichkinadir o'zi, Yiltir-yiltir ko'zi. (Yulduz)	Tom ustida qo'sh chiroq. (Ko'z)	Oyog'i popik, Og'zi ko'pik. (Tuya)
Xo'ppa emiz, Bir tuki yo'q. (Tarvuz)	Zar gilam, zar-zar gilam, Ko'taray desam, og'ir gilam. (Yer)	Temir qo'rg'on ichida, Qizil toychoq o'ynaydi. (Til)	Quyon emas, Uzun qulqoq, Ot emas, To'rtta tuyeq. (Eshak)
Qo'shnimnin garqoni devoldan oshib tushdi. (Oshqovoq)	Novcha yigit tom teshar. (Yomg'ir)	Teg desam, tegmaydi, Tegma desam, tegadi. (Lab)	Soqoli bor, Mo'ylovi yo'q. (Echki)
Pishmaganda mazali, Pishganda mazasiz. (Bodring)	Gilam ustida oq bodroq. (Do'l)	Sandiq to'la oq sadaf. (Og'iz, tish)	Soyada yotar, Ming qo'y boqar. (It)
Qirq ko'ylagi bor, Bir tugmasi yo'q. (Piyoz)	Ariqdan oyna oldim. (Muz)	Katta-kichik besh o'rtoq, Uyushsa bo'lar to'qmoq. (Barmoqlar)	Boshi boru sochi yo'q, Ko'zi boru qoshi yo'q. Tangasi bor, puli yo'q, Qanoti bor, uchuvi yo'q. (Baliq)

3-topshiriq. O'quvchilarga bir predmetli va ko'p predmetli topishmoqlar aralsh tarzda beriladi. Ularni quyidagicha jadvalga joylashtirish lozim.

Bir predmetli topishmoqlar

Ko‘k ko‘ylakka g‘o‘za yoydim.
(Osmon, yulduzlar)

Og‘a-ini ming botir,
Ko‘m-ko‘k gilamda yotir.
(Osmon,
yulduzlar)

Otasi egri-bugri,
Onasi silliq juvon,
O‘g‘li qo‘sishqchi,
Qizi o‘yinchи.
(Ariq, suv, baqa, baliq)

Atrofi chakalakzor,
O‘rtasi yorug‘ yulduz.
(Ko‘z bilan kiprik)

Erta bilan to‘rt oyoqlab yuradi,
Tushda ikki oyoqlab yuradi,
Kechqurun uch oyoqlab yuradi.
(Odam — bolaligi,
yigitligi, keksaligi)

Ko‘p predmetli topishmoqlar

Otlari har xil,
Yoshlari bir xil.
(Haftanинг
kunlari)

Osti tosh, usti tosh,
O‘rtasida chandir
bosh.


(Toshbaqa)

Bir ajoyib ishxona,
ichi doim qishxona.
(Muzlatgich)

Tog‘dan tayladim
sinmadi,
Suvga tayladim sindi.
(Qog‘oz)

Sirti tayoq,
Ichi bo‘yoq.
(Qalam)

4-topshiriq. Topishmoq va maqollarning o‘xshash hamda farqli tomonlarini jadvalga joylashtiring. (Bunda o‘quvchilarga quyidagi ma’lumotlar chalkash tarzda beriladi, ular bu ma’lumotlarni “Venn diagrammasi”ga to‘g‘ri joylashtirishi lozim)



MAQOL:

1. Dono, purhikmat fikrlar ifodalanadi.
2. Fikr anqi, xulosa tugal, ifoda lo'nda hukm tarzida bo'ladi.
3. Xalqning hayotiy tajribalari assosida yuzaga kelgan.

UMUMIY JIHATLARI:

1. Xalq og'zaki ijodi namunasi.
2. Fikrlar ixcham ifodalanadi.
3. Badiiy tasviriy vositalar qo'llanadi.
4. She'riy va nasriy tuzilishga ega.

TOPISHMOQLAR:

1. Savol yoki jumboq yashirin bo'ladi.
2. O'quvchini izlantiradi.
3. Ularning zamirida kishilarning olamni idrok etishga bo'lgan orzu va intilish yotadi.

V. Uyga vazifa: Darslikda berilgan quyidagi savol va topshiriqlarni bajarish.

1. Maqol haqida nimalarni bilasiz?
2. Kitobingizda keltirilgan maqollardan o'ntasini yod oling.
3. Darslikda berilgan maqollardan tashqari mustaqil ravishda uch-to'rtta maqol yozib keling.

4. Topishmoqlarni yana qanday nomlar bilan atashadi?
5. Topishmoqda yashiringan ma’no qanday shaklda ifodalanadi?
6. Nasriy va she’riy topishmoqlarga misol keltirin.
7. Ota-onangiz yordamida darslikka kirmagan maqol va topishmoqlardan topib, quyidagi jadvalga yozing va sinfdoshlaringizga o‘qib bering.

Vatan haqidagi maqollar	
Mehnat haqidagi maqollar	
Hayvonlar to‘g‘risidagi topishmoqlar	
Uy anjomlari to‘g‘risidagi topishmoqlar	

MAVZU: IMOM BUXORIY. HADISLAR

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: Imom Buxoriy hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish. Hadis haqida nazariy ma'lumot berish va hadislar bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: hadislar vositasida o'quvchilarga sahovat, himmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, ota-onaga hurmat kabi fazilatlarni singdirish

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so'z boyligini oshirish, chaqqonlik, uddaburonlikka undash.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalilanadigan usullar: “Aqliy hujum”, “To'g'risini top”, usuli, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog'ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- d) ma'naviyat daqiqasi:

Sen o'z xulqingni tuzgil, bo'lma el axloqidin xursand,
Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo'lmagay farzand.

(Alisher Navoiy)

Doskaga ushbu bayt yoziladi. O'quvchilar hamda o'qituvchi hamkorligida o'qib yangi mavzuga bog'liq holda tabhlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so'rash:

“Topishmoqlar” mavzu yuzasidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o'quvchilar qanday bajargani tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni:

O‘qituvchi Imom Buxoriy haqida ma’lumot beradi:



“Imom al-Buxoriyning ismi – Muhammad, otasining ismi – Ismoil bo‘lib, 810-yilning 21-iyunida Buxoro shahrida tug‘ildi. Otasi Ismoil Buxoriy ham muhaddis edi, goho tijorat bilan shug‘ullanardi. Lekin juda halol, xudojo‘y odam edi. Zamondoshlari uning xonadoniga mehnatsiz topilgan biror dirham ham pul kirmaganligi haqida yozadilar.

Onasi ham diyonatli, qalbi Allohdha, qo‘li duoda bo‘lgan pokiza ayol edi. Aytishlaricha, Muhammadning ko‘zi yoshligida jarohatlanib, ojizlanib qoladi. Tabiblarga qaratadilar, foyda bermaydi. Bir kuni ona tush ko‘radi. Ibrohim alayhissalom unga qarata: «Ey volida, duolaring sharofatidan Alloh o‘g‘lingga ko‘rish ne’matini qaytardi!» – deb xitob qilayotgan mish. Cho‘chib uyg‘ongan ona o‘g‘lidan xabar olibdi. Muhammadning ko‘z qaroqlarida nur o‘ynardi.

Imom Buxoriy mana shunday oilada o‘sdi. Otasi erta va-fot etganidan tarbiyasida onasining xizmati katta bo‘ldi. Kichkinaligidan hadis ilmiga ko‘ngil qo‘ydi. O‘n yoshlaridan o‘z zehni va yod olish quvvati bilan ustozlarini shoshirib qo‘ya boshladи. O‘n olti yoshida minglab hadislarni yod bilar, ularning «sahih», «nosahih»ligini birma-bir isbot qilib bera olar edi.

Imom Buxoriy quyidagi yurtlarga safar qildi, o‘z ilmini oshirdi va uni ko‘plab tolibi ilmlarga tarqatdi:



Bularning samarasi sifatida bizga yigirmadan ko‘proq asar goldirdi.

Yodingizda tuting!

Imom Buxoriy yolg‘iz «Al-jome’ as-sahih» («Ishonchli to ‘plam») kitobi ustida 16 yil ishlagan. Unga kiritilgan 7397 hadis 600 ming hadisning ichidan saralab olingan.

Shundan so‘ng o‘quvchilarga darslikdagi ma’lumotlarga tuyanib ushbu tushunchalarga izoh berish so‘raladi:

Muhaddislar

Kalomulloh –

Vahiy – ...

Sahih – ...

Roviy – ...

Imom Buxoriy hayoti va ijodi haqida
ma'lumot berilgandan so'ng, hadis haqida ham
nazariy ma'lumot beriladi:



Hadis

Islom dinida Qur'onidan
keyin turadigan ikkinchi
muqaddas manba .

Muhammad (s.a.v.)
payg'ambar biror gap
aytgan, biror ish qilib
ko'rsatgan yoki boshqalar
qilgan biron-bir ishni ko'rib
turib, uni man etmagan
bo'lsa, ana shu uch holat
sunnat hisoblanadi. Ana
shunday xatti-harakatlar yoki
ko'rsatmalar hadis deb
yuritiladi.

Sanad

payg'ambarimiz
so'zlarining qachon,
qanday sharoitda,
kimlar huzurida
aytilganligi hujjati

matn

uning mazmunidir.

Abu Iso
Muhammad ibn
Iso at-Termiziy

Abdulloh
Muhammad ibn
Ismoil al-
Buxoriy

Abu Muhammad
Abdulloh ibn Abu
ar-Rahmon ad-
Dorimiy as-
Samarqandiy

Bizning
yurtimizdan
yetishib
chiqqan
mashhur
muhaddislar

IV. Mustahkamlash. Darslikda berilgan hadislardan namumalarni o‘quvchilar o‘qiydi. Hadislар mazmuni yuzasidan o‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Uchta hislatni o‘zida mujassam qilgan insonning iymoni mustahkam bo‘ladi. Bu qaysi hislatlar?
2. Hadislarda ilm qanday ulug‘langan?
3. Onani ulug‘lash haqida qaysi hadislarni ayta olasiz?
4. Hadislarni rivoyta qilgan sahabalardan kimlarni bilasiz?
5. Hadislarda qaysi yomon illat kishini o‘z ota-onasini haqorat qilgan bilan barobar qilingan?

2-topshiriq. Testni yeching.

1. Payg‘ambarimiz hadislarning birida qaysi xislatni ahamiyatiga ko‘ra ochga taom bergen bilan teng qo‘ygan?

- A. kambag‘alligida ham sadaqa berib turishni
- B. insofli va adolatlil bo‘lishni
- D. Salom bermoqlikni
- E. To‘g‘ri so‘zlamоqlikni

2. Bir kishining “Islomda eng yaxshi xislatlar qaysidir” – deb so‘ragan savollariga Rasululloh s.a.v. qanday javob beradilar?

A. Ochlarga taom bermoqlik, tanigan va tanimaganga salom bermoqlik.

B. Insofli va adolatli bo‘lmoqlik.

D. G‘azablangan paytida jahlini bosmoqlik va sadaqa bermoqlik.

E. Ilm o‘rganmoqlik va va yaxshi muomala qilmoqlik.

3. Payg‘ambarimiz ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlarini juft qilib ko‘rsatib “ikkimiz jannatda yonma-yon yashaymiz” – deb kimni nazarda tutgan?

A. G‘azablangan vaqtida jahlini yutgan odamni

B. Yetimning kafilini olgan odamni

D. Tanglikda ham, mo‘lchilikda ham xayr-ehson qiluvchilarni

E. Ilm o‘rgangan va uni boshqalarga o‘rgatgan kishilarni

4. Payg‘ambarimiz hadislarning birida ilmni va ilm oluvchini nimaga o‘xshatadi?

A. Ilmni – yerga, ilm oluvchini – yomg‘irga

B. Ilmni – yerga, ilm oluvchini – donga

D. Ilmni – yomg‘irga, ilm oluvchini – yerga

E. Ilmni – bulutga, ilm oluvchini – daraxtga

5. Hadislarni bir-biridan eshitib, rivoyat qilib, avloddan avlodga qoldirib kelgan roviylar ro‘yxati qanday nomlanadi?

A. Sanad

B. Matn

D. Musnad

E. Muhaddis

Uyga vazifa: Darslikda berilgan savol va topshiriqlarni bajarish

MAVZU: EZOP HAYOTI VA IJODI. MASALLAR TAHLILI

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: Ezopning ibratli hayot yo‘li bilan o‘quvchilarni tanishtirish. Ezop masallarini o‘qish va tahlil qilish.

Tarbiyaviy: Masallarda ifodalangan ibratli voqealar orqali o‘quvchilarda do‘stlikka saqoqat, shukronalik, mehnatsevarlik, sabrlilik kabi sifatlarni tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so‘z boyligini oshirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalilaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “To‘g‘risini top”, “Guruhlarga ajrat”usuli, “Rasmlarni izohla”, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- d) ma’naviyat daqiqasi:

Bilgan topib gapirar, bilmagan qopib.

O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir. (Maqol)

Doskaga ushbu maqollar yoziladi. O‘quvchilar hamda o‘qituvchi hamkorligida o‘qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so‘rash:

“Imom Buxoriy. Hadislar” mavzu yuzasidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o‘quvchilar qanday bajargani

tekshiriladi, o‘quvchilar yodlagan hadislarni aytib beradi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni:

O‘qituvchi Ezop hayoti va ijodi yuzasidan qisqacha ma’lumot berib o‘tadi:

“Rivoyatlarga ko‘ra, miloddan avvalgi VI asrlarda Yunonistonda quldorlik tuzumi hukm surgan paytda qullar orasidan yetishib chiqqan nihoyatda aqlii, ammo o‘ta badbashara, xunuk bir donishmand bo‘lib, uni Ezop deb atashgan ekan. Uning asli kelib chiqishi o‘sha davrlardagi Frigiya mamlakatidan bo‘lib, urushlar natijasida qul qilib olinib, Yunonistonga kelib qolgan. Ezop aql-u farosati, topqirligi bilan o‘z xo‘jayinlarining mushkullarini oson qilib, hurmat va e’tibor qozongan. Hatto shaharlarni bosqinlardan asrab, podshohlarni qirg‘in-barot urushlardan to‘xtatib qolgan. Oxir-oqibat o‘zini qullikdan xalos etib, Lidiya shohi Krez saroyida xizmat qilgan, so‘ng Vavilon shohi Likurg sultanatida xazinabon darajasiga ko‘tarilgan. Keyinroq haqgo‘yligi, adolatparastligi, kinoyali achchiq tili uchun alamzada, hasadgo‘y dushmanlari uni Delfa shahrida tog‘ qoyasidan otib yuborib o‘ldirganlar.

Ezop hayoti haqidagi ma’lumotlar o‘sha davrdagi va undan keyingi asrlardagi solnomachilar tomonidan yozib qoldirilgan rivoyatlar, ibratli hikoyatlar orqali yetib kelgan. Uning 500 ga yaqin masallari qadim davrlardayoq jamlanib, «Ezop masallari» nomi ostida kitob qilingan va donishmandlik o‘gitlari sifatida butun dunyoga tarqalgan”.

O‘quvchilarni faolashtirish uchun quyidagicha topshiriq beriladi:



Darslikda Ezop hayoti bilan bog'liq ikkita rivoyat keltirilgan. Ularni o'qing va savollarga javob bering.

1. Ezopning xo'jayini qullarga qanday topshiriq berdi?
2. Ezop qanday yukni oldi?
3. Ezop nima uchun eng og'ir yukni tanladi? Bu uning aqlsizligidan dalolatmi yoki donoligidan?
4. Ezopning xo'jayini Ksanf nima uchun og'ir ahvolga tushib qoldi?
5. Ksanf og'aynilari bilan qanday garov o'ynadi?
6. Ksanf garovda qanday qilib yutdi?

Shundan so'ng o'qiyuvchi masal haqida tushuncha beradi:

Masal – majoziy xarakterdagi qisqa hikoyacha bo'lib, nasriy yoki she'riy shaklda yoziladi. Uning asosiy qahramonlari turli hayvonlar, narsa-buyumlardan iborat. Bular ramziy-majoziy ma'noda qo'llanilib, insonlar fe'l-atvoridagi turli xususiyatlarga ishora sifatida keltiriladi. Masalning asosiy jihat shuki, u to'liq ma'noda tarbiyaviy maqsadga yo'naltiriladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan Ezop masallari bunga yorqin misoldir. Agar Ezop birinchi masalchi hisoblansa, undan so'ng framizning birinchi va ikkinchi asrlarida yashab o'tgan grek masalchilari Fedr, Babriy tom ma'noda uning davomchilari hisoblanadi. Fedrning masalchilik rivojidagi asosiy xizmati hunda ediki, u Ezop masallarini she'riy yo'l bilan lotin tiliga tarjima qildi. Ana shu tarjimalarga suyanib va ilhomlanib XVII asrda Fransiyada Lafonten, XVIII asrda Germaniyada Lessing, Gellert va XVIII-XIX asrlarda Rossiyada I. Krilov masal janrida barakali ijod qildi.

Ko‘hna Sharq adabiyotida ham majoziy shaklda, ya’ni turli hayvonlar tilidan tarbiyaviy ahamiyatga molik hikoyachalar keltirish tajribasi qadim hind adabiyotining nodir namunalari bo‘lgan «Panchatantra», «Kalila va Dimna» kabi asarlar tarkibida uchraydi. Bu hikoyatlar ham dunyoning ko‘pgina tillariga tarjima qilinib, shunday yo‘nalishdagi yangi asarlarning yaratilishiga turtki bergen.

Shu o‘rinda majoziy shakldagi ibratli hikoyatlarning eng sara namunalari ulug‘ bobokalonimiz Alisher Navoiyning «Xamsa» asaridagi birinchi doston «Hayrat ul-abror» (Yaxshi odamlarning hayratlanishi)da va maxsus shu yo‘nalishda yaratilgan «Lison ut-tayr» (Qush tili) dostonida uchrashini alohida aytib o‘tish lozim. Shu bilan birga XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida yashab o‘tgan Muhammad Sharif Gulxaniy ham «Zarbulmasal» nomli asari bilan o‘zbek adabiyotida masalchilik rivojiga ulkan hissa qo‘shti. Ulardan tashqari, XX asrga kelib Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Yamin Qurbon, Sami Abduqahhor, Muxtor Xudoyqulov kabi ijodkorlar asarlarida masal janrining yaxshi namunalari uchraydi.



O‘quvchilar masal haqida tushuncha olgandan so‘ng, darslikda keltirilgan masallarni o‘qiydi.

IV. Mustahkamlash.

1-topshiriq. Har bir masalga tegishli qahramonlarni ajrating va masalni nomlang.

1- masal : Echki, yovvoyi echkilar, cho‘pon

2-masal: Burgut, zag‘cha, cho‘pon va bolalar

4-masal: eshak va baqlar

5-masal: kiyik, ovchi



2-topshiriq. Masallarni ularning mazmuni bilan mos bo'lgan maqollar bilan birlashtiring.

"Burgut, zag'cha va
cho'pon"

"Eshak bilan baqalar"

"Kiyik bilan tokzor"

"Ustiga tuz ortilgan eshak"

Yovvoyi echkilar bilan
cho'pon

Og'irning ostidan, yengilning
ustidan o'tma

Behuda chiranish belni

chiqaradi.

Birni ko'rib shukr qil, birni
ko'rib fikr qil

Qilmish-qidirmish

Yangi do'st topgan eskisini
unutmata

3-topshiriq. Darslikda berilgan ushbu topshiriqni o‘qing.
Mushohada qiling.

“Yovvoyi echkilar bilan
cho‘pon”

“Kiyik bilan tokzor”

“Bo‘ri bilan laylak”

“Eshak bilan baqalar”

“Ustiga tuz ortilgan eshak”

Burgut, zag‘cha va cho‘pon

Cho‘pon qanday yo‘l tutsa
to‘g‘ri bo‘lar edi?
Ovchi ortga qaytmasa, kiyik
qilmishi uchun jazolanmay
qolar edimi?

Ezop nima uchun badfe‘l
kimsalarni bo‘riga o‘shatgan?

Odam boshiga tashvish
tushganda o‘zini qanday
tutishi to‘g‘ri bo‘ladi?

Hiyla-nayrangni ishlatishni
o‘ziga odad qilib olgan
tengdoshlaringizga qanday
maslahat berar edingiz?

Ota-bobolarimiz nima uchun
hasadni o‘tga o‘xshatishgan?

“Bo‘ri bilan laylak” masala 3 D
namoyishini kuzating.



V. Uyga vazifa: Darslikda berilgan
savollarga javob yozish.



MAVZU: “UCH OG‘A-INI BOTIRLAR” ERTAGI

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi matni bilan o‘quvchilarni tanishtirish. Ertak janri haqida ma’lumot berish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda ota-onaga hurmat, rostgo‘ylik, yafo va sadoqat, mehnatsevarlik kabi sifatlarni singdirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so‘z boyligini oshirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “To‘g‘risini top”, “Guruhlarga ajrat”usuli, “Rasmlarni izohla”, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- d) ma’naviyat daqiqasi:

Ertaklar – yaxshilikka yetaklar.

Doskaga ushbu hikmatli so‘z yoziladi. O‘quvchilar hamda o‘qituvchi hamkorligida o‘qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so‘rash:

“Ezop. Masallar tahlili” mavzu yuzasidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o‘quvchilar qanday bajargani tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Ertak – xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy turlaridan biridir. Ertakning paydo bo‘lishida qadimiy urf-odat, marosimlar, tabiat hodisalari, jonivorlar muhim o‘rin tutgan.

Hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, tarbiyaviy ahamiyatga ega og'zaki hikoyalar **ertak** deyiladi.

Ertak turli viloyatlarda turlich nomlanadi:

matal

- Surxondaryo, Samarqand, Farg'onada

ushuk

Buxoro atrofidagi ba'zi qishloqlarda

varsaki

Xorazmda

cho'pchak

Toshkent shahri va uning atrofida

Ertaklar turli mavzularda bo‘lishi mumkin:

hayvonlar
haqidagi ertaklar sehrli ertaklar

Ertaklar

hayotiy-maishiy
ertaklar hajviy
ertaklarga

O‘quvchilar ertak haqida nazariy ma’lumot bilan tanishgandan so‘ng, ertak matni bilan tanishadi. Ertak rollarga bo‘lib o‘qiladi.

IV. Mustahkamlash:

I-topshiriq. Ertak sujetiga tegishli ma’lumotlar taqdim etiladi. O‘quvchilar ushbu ma’lumotlarni 2 guruhga ajratishi lozim.

To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
O‘rtancha botir ajdarni o‘ldiradi.	Uch og‘a-inilarning otasi o‘g‘illariga katta boylik meros qilib qoldiradi.
Uch o‘g‘a-inilarning otasi safar uchun qora toyni, saman toyni, ko‘k toyni asbob-anjomlari bilan tayyorlab qo‘yadi.	Kenja botir o‘z uyiga o‘g‘rilikka tushmoqchi bo‘lgan o‘g‘rilarni qirib tashlaydi.
Og‘a-inilardan sir olmoqni podshoh vazirga topshiradi.	Cho‘pon o‘g‘rinini boshiga to‘qmoq bilan urib o‘ldiradi va uni hech kimga bildirmasdan ko‘mib yuboradi.

4.	Podshohning eng sevimli kuyovi kenja botir edi.	Podshohning 3 qiz va bir o‘g‘li bor edi.
5.	Kenja botirning zindonga tushishiga vazir sababchi bo‘ladi.	“Podshoh va to‘ti” hikoyatini o‘rtancha botir aytib beradi.
6.	“Podshoh va to‘ti” hikoyasida to‘ti podshohdan 15 kunga uyga borib-kelish uchun ruxsat oladi.	“Podshoh va to‘ti” hikoyasida to‘ti ota-onasini ko‘rish uchun Yunonistonga uchib ketadi.
7.	To‘ti podshohga o‘z ozodligi uchun 3ta yoshartiruvchi meva olib keladi.	Podshohga to‘tining sovg‘asi ma‘qul keladi va uni ozod qiladi.

2-topshiriq. “Uch og‘a-ini botirlar”ertagi qahramonlarining har biriga tegishli xususiyatlarni aralash tarzda beriladi, o‘quvchilar ularni quyidagicha ajratishi lozim.

21 yosh Sherni o‘ldiradi. Ovqatga solingan go‘sht it emib katta bo‘lgan qo‘zi go‘shti eknaligini aniqlaydi.	18 yosh Ajdarni o‘ldiradi. Shinniga odam qoni qo‘shilganini aniqlaydi.	16 yosh O‘g‘rilarni qirib tashlaydi. Shohning otasi novvoy ekanligini aniqlaydi. Podshohni ilonning zahar solishidan qutqarib qoladi.
<u>To‘ng‘ic h o‘g‘il</u>	<u>O‘rtanch a o‘g‘il</u>	<u>Kenja o‘g‘il</u>

V. Uyga vazifa. Mavzu yuzasidan darslikda berilgan javol va topshiriqlarni bajarish.

MAVZU: HAMID OLIMJON HAYOTI VA IJODI. “OYGUL BILAN BAXTIYOR” ERTAK-DOSTONI

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: Hamid Olimjon hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish. “Ertak-doston”janri bilan o‘quvchilarni tanishtirish va “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostonidan parcha o‘qish va tahlil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda mardlik, jasorat, yurtga aloqat, uning ozodligi uchun kurash kabi tuyg‘ularni bakhallantirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma mutqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so‘z boyligini oshirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “To‘g‘risini top”, “Guruhlarga ajrat”usuli, “Venn diagrammasi”, kichik guruhlarda ishslash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- d) ma’naviyat daqiqasi:

O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l. (Maqol)

Doskaga ushbu maqol yoziladi. O‘quvchilar hamda o‘qituvchi hamkorligida o‘qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so‘rash:

“Uch og‘a-ini botirlar” mavzu yuzasidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o‘quvchilar qanday bajargani tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Shoir hayoti va ijodi oid ma’lumotlar ko‘rgazmali qurollar yoki taqdimot shaklida o‘quvchilarga yetkaziladi va tushuntiriladi.


Shoir hayoti va ijodi bilan bog‘liq muhim tarixiy sanalar:

1909-yil 12-dekabr	Jizzax shahrida tug‘ildi.
1923-1926-yillar	Pedagogika bilim yurtida o‘qidi.
1926-1931-yillar	Pedagogika akademiyasida tahsil oldi.
1926-yil	Shoirning dastlabki she’rlari Samarqandda chop etiladigan “Zarafshon” gazetasida boshilgan.
1929-yil	“Ko‘klam” nomli birinchi she’rlar to‘plami nashe etildi.
1937-yil	“Oygul bilan Baxtiyor” nomli mashhur dostonini yaratdi.
1944-yil 3-iyul	Baxtsiz hodisa tufayli vafot etdi.

Asarlari

- "Ko'klam" she'riy
to'plami
- "Muqanna" tarixiy
dramasi
- "Jinoyat" dramasi
- "Oygul bilan Baxtiyor"
ertak-dostoni
- "Zaynab va Omon"
dostoni
- "Semurg"" dostoni
- "Roksananing ko'z
yoshlari" dostoni

Adib hayoti va ijodi haqida ma'lumotdan so'ng
o'quvchilarga ertak-doston haqida tushuncha beriladi:



Ertak-dostonlarning namunalarini yaratgan jahon adabiyoti vakillari



Ubayd
Zokoniy



Aleksandr
Sergeyevich
Pushkin



Korney
Chukovskiy



Samuil
Marshak

Ertak-dostonlarning namunalarini yaratgan o‘zbek adiblari



Abdulla Avloniy



Qudrat Hikmat



Zafar Diyor



Hamid Olimjon



Maqsud Shayxzoda



Quddus Muhammadiy



Po'lat Mo'min

So‘ngra o‘quvchilarga Hamid Olimjonnin “Oygul bilan Bahtiyor” ertak-dostonining darslikda berilgan parchasi birgalikda o‘qiladi.

IV. Mustahkamlash.

I-topshiriq. Har bir qahramonga xos bo'lgan sifatlarni belgilang.

Oygul Baxtiyor Tarlon Jurjon Baliqchi Darxon xoni

o'ral edi va

chinor

+

ko'kraklari

budun bir

Ottobni

yashirardi.

Co'zal,

ko'ngli

bo'libor,

burlikni aylab

duor

U doim boqib

poda

vurar edi

ahroda.

I-yonchilar

bo'chisi, xon

tomonidan

jil qilingan

qahramon

taroyda

sizmat

qiladigan,

ondan juda

ko'p jabr-u

alo ko'rgan

Olichday

otkir edi,

Rustam kabi

ot edi.

Ammo elda
xor edi,
Kambag‘al,
nochor edi.

Tanti,
mehribon

Zolim,
qonxo‘r,
adolatsiz

2-topshiriq. Ertak davomida 3ta manzil tilga olingan.
Ertak qahramonlarini ushbu manzillarga mos ravishda
guruahlarga ajrating.

Qahramonlar:


Darxon, baliqchi, Tarlon, bag‘ritosh xon, Oygul, zolim
xon, Baxtiyor, o‘tinchi chol, qirq qiz, savdogar

Jambil

Jurjon

Susambil

3-topshiriq. Oygul bilan Baxtiyoring umumiyligi, o‘xshash
va farqli jihatlarini jadvalda ifodalang.



V. Uyga vazifa. Mavzu yuzasidan darslikda berilgan avol va topshiriqlarni bajarish.

MAVZU: AKA-UKA GRIMMLAR. “BOTIR TIKUVCHI” ERTAGI

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: Aka-uka Grimmalar hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish. “Botir tikuvchi” ertagi bilan tanishtirish va qo’shil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda mardlik, jasorat, va inohnatkashlik kabi tuyg‘ularni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nuzqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so‘z boyligini oshirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “To‘g‘risini top”, “Guruhlarga ajrat”usuli, kichik guruhlarda iahlash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid quramlar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- c) ma’naviyat daqiqasi:

Aql yoshda emas – boshda (Maqol)

Doskaga ushbu maqol yoziladi. O‘quvchilar hamda o‘qituvchi hamkorligida o‘qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so‘rash:

“Oygul bilan Baxtiyor” mavzu yuzasidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o‘quvchilar qanday bajargani tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O‘qituvchi darslikda berilgan materiallarga tayangan holda quyidagi ma’lumotlarni beradi:

“Aka-uka (Yakob 1785-1863, Vilgelm 1786-1859) Grimmlar Magdeburg (Germaniya) universitetida o‘qib yurgan chog‘laridayoq o‘rta asr olmon tarixi va madaniyati, xalq og‘zaki ijodi hamda til va adabiyoti bilan jiddiy shug‘ullanganlar. O‘qish, o‘z ustlarida qattiq ishlash Grimmlar uchun baxt yo‘li bo‘ldi. Ular avval Gettingen, keyinchalik esa Berlin universitetining professorlari bo‘ldilar. Olmon xalq og‘zaki ijodining gullab-yashnashiga, olam kezishiga ulkan hissa qo‘shdilar.

Grimmlar ertaklarning ko‘pchiligini bevosita ertak aytuvchilardan tinglab, ba’zilarini esa dehqonlar bilan suhbatlashib yozib olardilar. Xalqdan olingan ertaklarning har biri Grimmlar tomonidan qayta ishlanib, yana xalqqa qaytarildi.

1812-1822-yillarda Grimmlar yozgan «Bolalar va oilaviy ertaklar» nomli uch jildlik kitob yuzaga keldi.

Bu kitoblarga ikki yuzdan ortiqroq ertak jamlangan bo‘lib, unda mualliflar afsonaviy, maishiy va hayvonlar haqidagi ertaklarni umumlashtirganlar. Ertaklarda saxiylik, mehnatsevarlik, botirlik kabi fazilatlar maqtalib, qo‘r quoqlik, dangasalik va yolg‘onchilik qoralanadi.

Grimmlar ertaklarining asosiy qahramonlari shoh va shahzodalar emas, balki kambag‘al, beva-bechoralarning o‘g‘il-qizlari, cho‘pon yoki askarlar bo‘ldi. Ular o‘zlarining

ibratomuz ishlari bilan ertak tinglovchida chuqur taassurot qoldiradi.

Grimmlaming dunyoga mashhur «Zolushka», «Qor qiz» ertaklarining qahramonlari hammadan turtki yeydigan, so‘kish hitadigan va eng qiyin yumushlarni bajaradigan qizlar bo‘lib, ertak davomida o‘zlarining halol mehnati, yoqimli so‘z va odoblar bilan baxtiyor bo‘ladilar. Ulardan tashqari, «Botir tikuvchi», «Yosh pahlavon», «Bremen musiqachilari» kabi ertaklar o‘zbek bolalarining ham sevimli asarlariga aylanib qolgan”.

Adiblar hayot yo‘li bilan tanishgandan so‘ng “Botir tikuvchi” ertagi tahliliga o‘tiladi. Ertak sinfda rollarga bo‘lib o‘qiladi.

IV. Mustahkamlash.

“Botir tikuvchi” ertgida tikuvchi Gans har xil manzillarda turli hasharotlar, shaxslar va mahluqlarga duch keladi. Gans o‘z botirligini ko‘rsatgan manzillarni ketma-ketlikda joylashtiring ya u yerda kimlarga duch kelganini aniqlang.

Manzillar



- Sarov
- Uv
- O’rmon
- Tog’
- G’or

Hayvonlar, mahluqlar, shaxslar



- Pashshalar
- Yakkashoh
- Oaroqchilar
- Ulkan odam
- Podshoh

2-topshiriq.

Quyidagi shaxs yoki narsalar qaysi ertakka tegishli ekanini toping.

Ot, o'tinchi chol, pashsha, to'ti, ajdar, murabbo,novvoy, qo'zichoq baliq, bolta ho'kiz, pishloq, sandiq



"Uch og'a-
ni botirlar'
ertagi



"Oygul
bilan
Baxtiyor"
ertak-



"Botir
tikuvchi"
ertagi

3-topshiriq. Testni yeching.

1. *"Botir tikuvchi" ertagida Gans kamariga qanday shior yozib olgan edi?*

- A. Chiqqanda jahlim yomon, yettisin etgum gumdon!
- B. Kichkina demang bizni, ko'tarib uramiz sizni.
- C. O'ynab gapisang ham, o'ylab gapir.
- E. Yigitning kuchi bilagida.

2. *"Botir tikuvchi" ertagida tikuvchi Gans qaysi voqeadan so'ng o'zini botir sifatida his etadi?*

- A. Ulkan odamni aldagidan so'ng
- B. Qaroqchilarni yenganidan so'ng
- D. Pashshalarni o'ldirganidan so'ng
- E. Yirtqich yakkashohni yenganidan so'ng

3. *Gans nima uchun pashshalarni o'ldirib qo'yadi?*

- A. Uning yuziga qo'nib halaqit bergani uchun
- B. Pashshalarning ovozi yoqmagani uchun
- D. Murabbo surtilgan nonga hujum qilgani uchun
- E. Podshoh iltimos qilgani uchun

4. Gans ulkan odamni nimalar yordamida aldaydi?

- A. Tosh va daraxt
- B. Pishloq va qush**
- C. Oltinlar
- E. Gul va musiqa

5. Ertak so'nggida shuncha qahramonliklar ko'rsatgan

Gans qaysi lavozimda faoliyat olib boradi?

- A. Podshoh
- B. Tikuvchi
- D. Vazir
- E. Soqchilar boshlig'i

V. Uyga vazifa. Mavzu yuzasidan darslikda berilgan

ta'limat va topshiriqlarni bajarish.

MAVZU: MIRKARIM OSIM HAYOTI VA IJODI. “ZULMAT ICHRA NUR” QISSASI

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: Mirkarim Osim hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish. “Zulmat ichra nur” qissasidan parcha o‘qish va tahlil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda mardlik, jasorat, yurtga sadoqat, uning ozodligi uchun kurashkitobxonlik, mutolaaga bo‘lgan qiziqishni oshirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so‘z boyligini oshirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “To‘g‘risini top”, “Guruhlarga ajrat”usuli, kichik guruhlarda ishslash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- d) ma’naviyat daqiqasi:

**Yigitlikda yig‘ ilmning maxzani,
Qarilik chog‘i sarf qilg‘il ani.**

(Alisher Navoiy)

Doskaga ushbu hikmatli so‘z yoziladi. O‘quvchilar hamda o‘qituvchi hamkorligida o‘qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so‘rash:

“Aka-uka Grimmalar. “Botir tikuvchi” ertagi” mavzu yuzasidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o‘quvchilar qanday bajargani tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Adib hayoti va ijodi oid ma'lumotlar
ba'lgaznali qurollar yoki taqdimot shaklida
quruvchilarga yetkaziladi va tushuntiriladi.

Mirkarim Osim hayoti va ijodi bilan bog'liq
mumkin tarixiy sanalar:



1907-yil	Toshkentda ziyoli oilasida tug'ilgan
1917-1920-yillar	«Shams ul-urfon» nomli boshlang'ich maktabda o'qigan.
1921-1924-yillar	ta'lim va tarbiya texnikumida tehsil olgan.
1925-yilda	«Yangi ariq» nomli dastlabki qissasi yaratilgan
1926-1930- yillar	Moskvadagi pedagogika institutining tarix fakultetida o'qigan.
1932-1949-yillar	Toshkent pedagogika ilmiy tekshirish institutida, keyin Maorif xalq komissarligi (vazirligi) qoshidagi muassasada ilmiy xodim bo'lib ishlagan.
1950-yil 15-yanvar	qamoqqa olindi.
1955-yil	Qamoqdan ozod etilgan.
1959-1972-yillar	G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida moharrir
1937-1940-yillar	Navoiyning hayot va ijod yo'llarini keng aks ettiruvchi «Alisher Navoiy va Darvishali», «Badarg'a», «Navoiyning xislatlari», «Ulugbek va Navoiy» singari qissa va hikoyalar yozdi.
1984-yil	Adib vafot etdi.
2002-yil	«Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlandi.

Asarlari

«To'maris»
«Shiroq»
«Iskandar va Spitamen»
«Aljabrning tug'ilishi»
«Ibn Sino qissasi»
«Jayhun ustida bulutlar»
«O'tror»
«Temur Malik»
«Mahmud Tarobiy»
«Karvon yo'llarida»
«Singan setor»
«Mohlaryim va Xonposhsha»

Tarjimalari

M. Sholoxovning «Tinch oqar Don»
S. Borodinining «Yeldirim Boyazid» romani
L. Batning «Hayot bo'stoni» qissasi

Shundan so'ng "Zulmat ichra nur" asaridan
parcha o'qiladi. Asarda ishtirok etgan qahramonlar
daftarga yoziladi va ularga o'qituvchi yordamida
tavsif beriladi:

Alisher – yosh bo'lajak shoir

Husayn Bayqaro – Alisherning maktabdish do'sti

G'iyosiddin – Alisherning otasi

Mirsaid – Alisherning tog'asi




Muhammad Ali – Alisherning tog‘asi
Darveshali – Alisherning ukasi
Mansur binni Boyqaro – Husaynning otasi
Shoxruh – Temurning o‘g‘li
Mirzo Boyqaro – Husaynning bobosi
Ulug‘bek – Amir Temurnin nevarasi
Abdullatif – Ulug‘bekning o‘g‘li
Boysunqur – Amir Temurning o‘g‘li
Abulqosim – Boysunqurning inisi. Sharobxo‘r
Mironshoh – Amir Temurning o‘g‘li
Gavharshodbegim – Abdulatifning buvisi
Abulqosim Bobur – Boysunqurning o‘g‘li
Sulton Muhammad – Abulqosim Boburning akasi
Sharafiddin Ali Yazdiy – tarixchi, “Zafarnoma” muallifi

IV. Mustahkamlash.

1-topshiriq. Asarda kichik Alisherning qanday sifatlari

ko‘zga tashlanadi?



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. G‘iyosiddin nima uchun yosh Alisherning qo‘lidan kitobni olib qo‘yadi?
2. Alisherning kelajakda katta shoir bo‘lib yetishishida oilaviy muhitning katta ta’siri bor. Asardan shunday o‘rinlar aks etgan lavhalarni topib o‘qing.
3. Alisher tojik tilini kimdan o‘rganadi?
4. Alisher qaysi fors shoirining sher’idan parcha o‘qib mehmonlarni hayratda qoldiradi?
5. G‘iyosiddin nima uchun butun oilasi bilan G‘arbiy Eronga ko‘chib ketishni niyat qiladi?
6. Alisher uyqusida otdan tushib yo‘qolib qolganda yo‘lni qanday topib keldi?

3-topshiriq.

Ushbu sifatlar asardagi qaysi qahramonlarga tegishli ekanligini naiqlang.

Muhammad Ali

jiddiy, kamgap, sipo odam

Mirsaid

gapdon, tor va tanburni yaxshi chaladi, o‘z suhbat bilan majlisga jon kirgizadi.

Husayn

bid‘at va xurofotdan yiroq, sog‘lom fikrli

G‘iyosiddin

xipcha bel, yag‘rini keng, qirg‘izqovoq, yurakli

4-topshiriq. Mirkarim Osimning «Zulmat ichra nur» asaridagi voqealarni ketma-ket joylashtiring.

1. Alisher ko‘cha-ko‘yda bolalar bila o‘ynab yurib, tojik ~~tilini~~ o‘rganib olg‘on, onasi forsiy, turkiy g‘azallarni o‘qig‘onda quloiq berib o‘tiradur va ba’zi matlalarni yoddan o‘qib beradur.

2. Alisher arab harflari yozilgan taxtani qo‘ltiqlab, o‘zidan ~~liki~~ yosh katta Husayn bilan birga maktabga borib-kelib yurdi.

3. G‘iyosiddin Kichkina Xurosondan ko‘chib ketish payti ~~beljanini~~ payqadi. Bir kun tong qorong‘isida besh-olti soyabon ~~ariva~~ va bir qancha otliq shahar darvozasidan chiqib, kunbotish ~~jomonga~~ yo‘l oldi.

4. Kechqurun karvonsaroy hujrasida ovqat yeb ~~tirganlarida~~ Alisherning otasi xonaqohda o‘tirgan cholning ~~sharaifiddin~~ Ali Yazdiy degan ulug‘ tarixchi ekanini so‘zlab berdi.

5. Bir kuni kechasi ot ustida borayotgan Alisherni uyqu ~~bolib~~, ko‘ziga qum tiqila boshladi.

6. Alisher ro‘parasida bir necha otliqning kelayotganini ~~to‘rib~~, o‘zida yo‘q suyunib ketdi, qadamini tezlashtirdi. ~~O‘odgan~~ otasini tanib, negadir o‘pkasi to‘lib, hiqillab yig‘lab ~~yubordi~~.

5-topshiriq. Testni yeching.

1. “*Zulmat ichra nur*” qissasida *G‘iyosiddin Kichkina* ~~“ani ikki qo‘y bahosiga sotib olg‘onmen”~~ deb nimani nazarda ~~tutgan edi?~~

A. Qimmatbaho matoni

B. Kitobni

D. Suratni

E. Noyob ko‘zani

2. “*Zulmat ichra nur*” asarida “*xipcha bel, yag‘rini keng, qirg‘iz qovoq*” deya tasvirlangan obraz kim?

A. Husayn Boyqaro

B. Mansur

D. Muhammad Ali

E. Shohrux

3. *Rindemu oshiqemu jahonso‘zu joma chok,*

Bo davlati g‘ami tu fikri jahon chi bok?

“Zulmat ichra nur” qissasida Alisher yoddan o‘qigan yuqoridagi bayt kimning qalamiga mansub?

A. Kobuliy

B. G‘aribiy

D.Qosim Anvor

E.Sharafiddin Ali Yazdiy

4. *“Zulmat ichra nur” asarida kim o‘lim to‘shagida yotgan Shohrux ustida turib bobolaridan rozi-rizolik so‘rash o‘rniga, burchak-burchakda pichir-pichir qilayotgan nabiralar ni murda ustiga yopirilg‘on o‘limtik qushlarga o‘xshatgan edi?*

A. Muhammad Ali

B. Sharafiddin Ali Yazdiy

D. G‘iyosiddin Kichkina

E. Mirsaid

5. *“O‘g‘lingiz axir bir kun yurtg‘a bosh bo‘ladur, ko‘zlaridin ma’lum”. “Zulmat ichra nur” asaridan keltirilgan ushbu gap kim haqida va kim tomonidan aytilgan?*

A. Alisher Navoiy haqida, Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan aytilgan

B. Alisher Navoiy haqida, Mirsaid tomonidan aytilgan

D. Husayn Boyqaro haqida, Mansurning yaqinlari tomonidan aytilgan

E.Alisher Navoiy haqida, Muhammad Ali tomonidan aytilgan

V. Uyga vazifa. Darslikda berilgan savol va topshiriqlarni bajarish.

MAVZU: OYBEK HAYOTI VA IJODI. “FONARCHI OTA” HIKOYASI TAHLILI

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: Oybek hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish.

“Fonarchi ota” hikoyasini o‘qish va tahlil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga do’stlik, rostlik va o‘zgalat mohnatini qadrlash kabi sifatlarni sifatlarni singdirish.

Rivojlantruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma mutqini rivojlantrish, dunyoqarashini kengaytirish, so‘z boyligini oshirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “To‘g‘risini top”, “Guruhlarga ajrat”usuli, kichik guruhlarda oblash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid o‘smlar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- d) ma’naviyat daqiqasi:

**Nafing agar xalqqa beshak durur,
Bilki bu naf o‘zingga ko‘prak durur.**

(Alisher Navoiy)

Doskaga ushbu hikmatli so‘z yoziladi. O‘quvchilar hamda qituvchi hamkorligida o‘qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so‘rash:

“Mirkarim Osim hayoti va ijodi. “Zulmat ichra nur” qonusi” mavzusi yuzasidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o‘quvchilar qanday bajargani tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Adib hayoti va ijodi oid ma'lumotlar ko'rgazmali qurollar yoki taqdimot shaklida o'quvchilarga yetkaziladi va tushuntiriladi.

O'qituvchi Oybek hayoti va ijodi yuzasidan ma'lumot beradi:

"Taniqli o'zbek adibi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yil 10-yanvar kuni Toshkent shahrida bo'zchi oilasida tug'ilgan. Avval mакtabda, keyin pedagogika texnikumida o'qigan. 1925 – 1930- yillarda O'rta Osiyo davlat dorilfununi (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning ijtimoiy fanlar fakultetida ta'lim olgan Oybek o'qishni bitirib, shu dorilfununda muallimlik qilgan.

Oybek adabiyotimiz xazinasini o'zining juda ko'p go'zal asarlari bilan boyitgan zahmatkash yozuvchi hisoblanadi. Yozuvchining ijodiy merosi 20 jildni tashkil etishi ham buning yorqin dalilidir".

«Dilbar –davr qizi»

«O'ch»

«Baxtigul va

Sog'indiq»

Dostonlar

«Tuyg'ular»
she'riy to'plami

She'rlar

«Fanorchi ot»

«Musicha»,

«Singan umid»,

«Tillatopar»

«Gulnor opa»

Hikoyalar Romanlar

«Qutlug' qon»

«Navoiy»

«Quyosh

qoraymas»

Shundan so‘ng “Fonarchi ota” hikoyasi
quvchilar bilan birga o‘qiladi.



Rasm 6 Fonarchi ota

Hikoyada ishtirok etgan obrazlar daftarga yoziladi:
Tursunqul aka
Fonarchi ota
Qosim cho‘loq
Ahmad

IV. Mustahkamlash. Hikoya matni
yuzasidan topshiriqlar beriladi:





Rasm 7 "Bolaning ko'ngli podsho"



Rasm 8 "Bolaning ko'ngli podsho"

1- topshiriq. Ushbu gaplardagi o'xshatishlar, ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarni aniqlang va izohlang.

1. Ayniqsa, mahalla bolalari ila fanor orasida anglashilmas dushmanlik uyg'ondi.

2. Keyin-keyin Fanorchi ota haftada uch-to'rt marta unga «yangi ko'zoynak» taqib ketishga majbur bo'lardi. U ketdi, darrov biz yangi «ko'z»ni o'yib olardik.

3. Narvoncha yelkadan tushib, ta'zim ila devorga suyandi. Fanorchi ota uning ustiga chiqdi-da, «chirt» etib gugurtni yoqdi: fanor to'rt tarafdan qulagan uy kabi ajava tusda, yana bir tomonga qiysayib turar edi.

4. Fanorni yoqqach, yerga tushib, obkashdek bukilgan narvonchasini qo‘yib, birpasda ko‘zdan yo‘qolar edi.

2-topshiriq. Testni yeching.

1. *Oybek hayoti va ijodiga oid noto‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.*

A. Oybek O‘rta Osiyo Davlat universitetining ijtimoiy fakultetida o‘qigan.

B. Oybek o‘z ijodini hikoya yozish bilan boshlagan.

D. Oybek Toshkentda bo‘zchi oilasida tug‘ilgan.

E. Barchasi to‘g‘ri

2. *“Fonarchi ota” hikoyasida tor, qiyshiq ko‘chaning oqshomini yoritib turuvchi fonar kimning darvozasi iepasiga o‘tkazilgan edi?*

A. Fonarchi otaning

B. Tursunqul akaning

D. Ahmadning

E. Qosim cho‘loqning

3. *“Fonarchi ota” hikoyasida har xil zararkunandalikni ylab topadigan, sheriklarini fanor ko‘zlarini sindirishga, shu yo‘l bilan fonarchi otaning g‘ashiga tegishga da‘vatigan bola kim?*

A. Muso B. Ahmad D. Qosim cho‘loq E. A’zam

4. *Oybekning romanlari to‘liq berilgan qatorni aniqlang.*

A. “Baxtigul va Sog‘indiq”, “O‘ch”, “Dilbar – davr qizi”

B. “Quyosh qoraymas”, “Navoiy”, “O‘ch”

D. “Navoiy”, “Bolalik”, “Singan umid”

E. “Outlug‘ qon”, “Navoiy”, “Quyosh qoraymas”

5. *Oybekning “Tillatopar”, “Musicha”, “Gulnora opa” singari asarlari qaysi janrda yozilgan?*

A. Hikoya B. Qissa D. Roman E. Doston

V. Uyga vazifa: Darslikda berilgan savol va topshiriqlarni bajarish.

MAVZU: MIRTEMIR HAYOTI VA IJODI. MIRTEMIR SHE”RLARI TAHLILI

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: Mirtemir hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish. Mirtemirming “Bulut”, “Shudring”, “Baliq ovi” she’rlarini o‘qish va tahlil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilar tabiatga muhabbat, atrof-muhitga hurmat kabi fazailatlarni singdirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so‘z boyligini oshirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalananiladigan usullar: “Aqliy hujum”, “To‘g‘risini top”, “Guruhlarga ajrat”usuli, kichik guruhlarda ishslash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- c) ma’naviyat daqiqasi:

Birni vessang, o‘nni ek (Maqol).

Doskaga ushbu maqol yoziladi. O‘quvchilar hamda o‘qituvchi hamkorligida o‘qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so‘rash:

“Oybek hayoti va ijodi. “Fonarchi ota” hikoyasi” mavzusi yuzasidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o‘quvchilar qanday bajargani tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O‘qituvchi Mirtemir hayoti va ijodi
yuznsidan ma’lumot beradi:



“Mirtemir Tursunov 1910-yilda, o‘zi
yo‘zanidek, Qoratog‘ etaklarida —Turkiston
shahriming Ikon qishlog‘ida tug‘ilgan. Avval
buhosi qo‘lida, keyin eski maktabda tahsil olgan. So‘ng
Toshkentga kelib, «Almai» nomidagi bolalar namuna ish
maktabida tarbiya ko‘radi. Samarqanddagi O‘zbekiston davlat
pedagogika akademiyasida o‘qiydi. O‘qishni bitirib,
maktablarda muallimlik qiladi, nashriyotlarda, Yozuvchilar
yurumasida ishlaydi.

Shoirning birinchi she’ri «Tanburim ovozi» 1926-yilda, 16
yoshida e’lon qilinadi. 1928-yilda uning «Shu'lalar qo‘ynida»
nomli ilk she’riy to‘plami nashr etiladi. Keyin «Zafar»,
«Qaynashlar», «Tong» to‘plamlari dunyo yuzini ko‘radi.

O‘ttizinchi yillarda u juda ko‘p vaqtini tarjimalarga
baqishlaydi. A.S. Pushkin, M.Y. Lermontov, N.A. Nekrasov,
I.G. Shevchenko she’rlarini, dostonlarini o‘zbekchaga
qiradi. Umuman, tarjima sohasida Mirtemir nihoyatda
barakali ijod qilgan. Antik dunyo shoiri Homer, shuningdek,
H. Rustaveli, H. Hayne, R. Tagor, Maxtumquli, Berdaq,
Hikimat she’riy asarlari, «Manas» qirg‘iz xalq eposi, «Qirq
qoraqalpoq xalq dostoni Mirtemir zahmatlari tufayli
bek o‘quvchisiga yetib kelgan.

Shoir umri davomida o‘nlab she’rlar va dostonlar
to‘plamlarini chop ettirdi. «Bong», «Poytaxt», «O‘ch»,
«Burat», «Qoraqalpoq daftari», «Tingla, hayot!», «Izlaganim»,
«Log‘day tayanchim», «Yodgorlik» kabilar ularning ichida eng
mushhurlaridir.

Shoirning ijodidagi bosh mavzu nima deb so‘ralsa, yurtga,
tibbiyatga oshiqlik, bolalik xotiralariga sadoqat, o‘z xalqidan
tarqlanish, uni chin dildan sevish va ardoqlash deb aytish
mu’mkin.

Mirtemir 1978-yil 24-yanvarda 68 yoshida vafot etadi".

Darslikda berilgan she'rlar bilan o'quvchilar tanishtiriladi.

"Shudring" she'ri:




"Baliq ovi" she'ri

So'ngra savol va topshiriqlar yordamida she'r tahlili amalga oshiriladi.

IV. Mustahkamlash.

1-topshiriq. Shoir "Bulut" she'rida bulutlarni nimalarga o'xshatgan? Jadvalni to'ldiring. (O'quvchilar jadvalni namunadek to'ldirishi lozim)



2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

"Bulut" she'ridagi:

"Yog 'ib o'tsang – tizza bo'yi o't bo'lur,
O't bo'lur, ham sut bo'lur, ham qut bo'lur" –
ularining ma'nosini sharhlang.

3. "Shudring" she'rida bola qayerlarda shundringni beraidi?

4. She'rda shundring nimalarga qiyoslangan? Nima qayd hunchi?

5. "Baliq ovi" she'rida qaysi fasldagi manzara tayvirlangan?

3-topshiriq. Testni yeching.

1. Mirtemir "Baliq ovi" she'ridagi qaysi misra orqali qaydini katta orzular va katta ishlarga chog'lanayotganini bildirib o'tadi.

A. Qarmog'imga ilinmaydi,
Suzmoqdam yo chopmoqda,
Suv tagidan ne topmoqda?

Yuz tikilsang bilinmaydi...
B. Ilinsaydi ulkanrog'i,
Eltar edim jon buvimga.

- Hay, rostanmi, hay, baliqmi,
Tangalikmi, chaqalikmi?

D. Bundan keyin to'r tashlavman,
Tashlasam ham zo'r tashlavman.

E. Suvda quyosh yuz bir siniq,
Ko'klam chog'i soy butun loy.
Qirg'og'ida jambil, yalpiz,
Quchog'ida balig'i mo'l.

2. Mirtemir umrining oxirida qanday nomdag'i to'plam tayyorlagan?

A. "Yodgorlik"

B. "Bong"

D. “Zafar”

E. “Tingla, hayot”

3. *Mirtemirning ijodiy merosi necha tomni tashkil etadi?*

A. 6

B. 4

D. 10

E. 20

4. *Bizning qishloq tog‘ bag‘rida,*

Tog‘ bag‘rida – bog‘ bag‘rida,

Etagida chopqillar soy,

Yozda tiniq, kuzda tiniq. Ushbu misralar Mirtemirning qaysi she‘ridan olingan?

A. “Qishlog‘im”

B. “Baliq ovi”

D. “To‘rg‘ay”

E. “Shudring”

5. *Mirtemirning ilk she‘riy to‘plami qanday nomlanadi?*

A. “Tanburim ovozi”

B. “Shu'lalar qo‘ynida”

D. “Tong”

E. “Qishlog‘im”

V. Uyga vazifa: Darslikda berilgan savol va topshiriqlarni bajarish.

MAVZU: O‘TKIR HOSHIMOV HAYOTI VA IJODI. “DUNYONING ISHLARI” QISSASI

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodi haqida lumot berish. “Dunyoning ishlari” qissasi takibidagi hikoyalarni o‘qish va tahlil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilar qalbida ota-onaga bo‘lgan surʼat, muhabbat tuyg‘usini o’stirish, ular qalbida ijobiy taʼallarni shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma autqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so‘z bavligini oshirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalilaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “To‘g‘risini top”, “Guruhlarga ajrat” usuli, kichik guruhlarda aralash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid yozmalar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- d) ma’naviyat daqiqasi:

Boshni fido qilg‘il ato boshig‘a,

Jismni qil sadqa ano qoshig‘a.

Tun-kuningga aylagali nur fosh,

Birisin oy ayla, birisin quyosh.

(Alisher Navoiy)

Doskaga ushbu hikmatli so‘z yoziladi. O‘quvchilar hamda qituvchi hamkorligida o‘qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so‘rash:

“Mirtemir hayoti va ijodi. Mirtemir she’rlari” mavzusidagi yuzasidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o‘quvchilar qanday bajargani tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O‘qituvchi O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodi yuzasidan ma’lumot beradi:

“O‘tkir Hoshimov adabiyotimizning mashhur vakili. O‘ndan ortiq roman va qissalar, biri-biridan ta’sirchan ko‘plab hikoyalar, bir nechta hayajonli dramatik asarlar muallifi. Dastlabki qissasi bilan yirik adib Abdulla Qahhorning nazariga tushgan. O‘Hoshimovning «Cho‘l havosi» qissasini o‘qigan adib yozuvchiga maktub bitib, asar uni suyuntirib yuborganini aytgan, «sof, samimi, tabiiy, iliq, rohat qilib o‘qiladi»gan asar yozgani bilan tabriklagan edi.

O‘tkir Hoshimov 1941-yilda Toshkentning Do‘mbirobod mahallasida tug‘ilgan. Yoshligidan ilmga, adabiyotga, san‘atga qiziqqan bo‘lajak yozuvchi 5-sinfda o‘qib yurgan vaqtidayoq she’r mashq qila boshlagan edi. Dastlabki kitobi esa yozuvchining talabalik yillarida nashr etilgan. O‘tkir Hoshimov hayot qozonida qaynagan, yozuvchi sifatida hayotdan bir qadam ham ajramay qalam tebratgan ijodkor edi. U butun hayoti davomida amaliy va ijodiy ishni teng olib bordi.

Adibning hayot yo‘liga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning xat tashuvchi, musahih, muxbir, gazetada bo‘lim mudiri, nashriyotda va jurnalda bosh muharrir kabi bosqichlarni bosib o‘tganiga guvoh bo‘lamiz. Keyingi yillarda bir necha marta xalq deputatligiga saylangan adib Oliy Majlisda qo‘mita raisi sifatida ham faoliyat ko‘rsatgan. Biroq bir lahma bo‘lsa-da, adabiy ijod bilan aloqani uzungani yo‘q. Keyingi 8-10 yilda ham adibning qator sermazmun kitoblari, publisistik maqolalari chop etildi.

Hozirda adibning «Urushning so‘nggi qurbanisi», «Muhabbat» kabi ko‘plab hikoyalari, «Nur borki, soya bor»,



«Illi eshik orasi», «Tushda kechgan umrlar» nomli romanlari, «Olamlar nima derkin», «Shamol esaveradi», «Ikki karra ikki besh», «Bahor qaytmaydi», «Dunyoning ishlari» nomli romanlari, «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» nomli hikmatlar o‘plami respublikamiz va xorijda sevib o‘qilmoqda. «Qatag‘on», «Inson sadoqati», «To‘ylar muborak» dramalari namlikatimiz teatrlarida sahnalashtirilgan. Respublika radio-sida efirga berilayotgan, televideniyesida ko‘rsatilayotgan bir qancha radio va telespektakllar ham hassos yozuvchimiz surʼulari asosida yaratilgan.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, o‘tkir nafasli jurnalist, jokuyar adib O‘tkir Hoshimov uzoq davom etgan xastalikdan so‘ng 2013-yilning 24-may kuni Toshkentda vafot etdi.

Ushbu ma’lumotlardan so‘ng adibning “Dunyoning ishlari” qissasida keltirilgan hikoyalarni baybatma-navbat o‘qiladi. So‘ngra hikoya yozusidan topshiriqlar bajariladi.



IV. Mustahkamlash.

1- topshiriq. “Dunyoning ishlari” qissasidagi hikoyalarda qanday xususiyatlari aks ettirilgan?

“Alla”

“Itijo”

“Galam paypoq”

“Qarz”

“Oq marmar, qora
marmar”

2-topshiriq. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” darslikda berilgan hikoyalarni rasmlar asosida aniqlang.



“Gilam paypoq



“Iltijo”




shutterstock.com 536000109

“Qiyomat qarz”



“Alla”



“Oq marmat, qora marmar”

3-topshiriq. Testni yeching.

1. “Dunyoning ishlari” qissasidagi qaysi hikoyada
Halima aya, Nilufar, Bahodir, Baxtiyor obrazlari
uchraydi?

A. “Haqqush” B. “Iltijo” D. “Qarz” E. “Alla”

2. “Dunyoning ishlari” qissasidagi “Alla” hikoyasida
qaysi xalq allalari o‘zaro qiyoslanadi?

A. O‘zbek, qirg‘iz, rus B. O‘zbek, qozoq, rus
D. O‘zbek, tojik, qirg‘iz E. O‘zbek, tojik, rus

3. O‘tkir Hoshimovning qaysi asari mustaqil sujetli
hikoyalardan tashkil topgan?

A. “Ikki eshik orasi” B. “Dunyoning ishlari”
D. “Muhabbat” E. “Qatag‘on”

4. “...umuman, o‘zbek ayoli haqida va umuman onalar
mug‘risida”. “Dunyoning ishlari” qissasi haqidagi ushbu
oller kimga qarashli?

A. O‘tkir Hoshimov B. Said Ahmad
D. Abdulla Qahhor E. Asqad Muxtor

5. “Dunyoning ishlari” qissasidagi qaysi hikoyada
Ubaq va Is’hoq nomli aka-ukalar haqidagi cho‘pchak
uchraydi?

A. “Gilampaypoq” B. “Haqqush”
D. “Iltijo” E. “Qarz”

V. Uyga vazifa. Darslikda berilgan savol va topshiriqlarni
bajarish.

MAVZU: ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODI. “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAN “SHER BILAN DURROJ” HIKOYATI TAHLILI

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish “Sher bilan durroj” hikoyati matni bilan tanishtirish, hikoya matni ustida ishslash.

Tarbiyaviy: O‘quvchilarga to‘g‘rilik yaxshi fazilat ekanligini, rost so‘zlashga odatlanish lozimligini uqtirish, yolg‘onchilik esa yomon odatligini, u nafaqat o‘zgalarga, balki insonning o‘ziga ham ko‘p kulfatlar olib kelishini tushuntirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Hikoyat matnini tahlil qilish orqali o‘quvchilar so‘z boyligini orttirish, nutqini o‘stirish, dunyoqarashini kengaytirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalilanidigan usullar: “Aqliy hujum”, “To‘g‘risini top”, “Guruhlarga ajrat”usuli, kichik guruhlarda ishslash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- d) ma’naviyat daqiqasi;

Xiradmand chin so‘zdan o‘zgasin demas,

Valekin barcha chin degulik emas.

(Alisher Navoiy)

Doskaga ushbu hikmatli so‘z yoziladi. O‘quvchilar hamda o‘qituvchi hamkorligida o‘qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so‘rash:

“O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodi. “Dunyoning ishlari”” mavzusi yuzasidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o‘quvchilar qanday bajargani tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O‘qituvchi Alisher Navoiy haqida qisqacha ma’lumot beradi:

“Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida Hirot shahrida ilgan. Bu shahar hozirda Afg‘onistonning markaziy shaharlaridan. Otasi G‘iyosiddin Muhammad edi. Uni «Kichkina bahodir» ham der ekanlar. Onasining ismi ma’lum mas.

Alisher juda kichik yoshlaridan she’r va musiqaga havas yodi, olim-u shoirlar davrasida ulg‘ayadi. Uning otasi muriliylar xonardoniga yaqin odamlardan edi. Ularnikiga zamonasining mashhur kishilari tez-tez kelib turishardi. Yosh Alisher uch-to‘rt yoshlarida she’r yod olib, ko‘plarni hayratga ilgan. Besh yoshida maktabga borib, bo‘lajak sulton Husayn Boyqaro bilan birga o‘qigan.

1447-yilda mamlakat podshohi Shohruk Mirzo vafot etib, urtda notinchlik boshlanadi. Alisherlar oilasi Iroqqa ko‘chadi. Olli yoshli Alisher yo‘lda bir tasodif bilan zamonasining mashhur tarixchisi Sharafiddin Al

Yazdiyga duch keladi. Odob va muomalasi bilan buyuk tarixchi mehrini qozonib, duosini oladi.

1452-yilda taxtga Abulqosim Boburmirzo chiqadi va Alisherning otasi Sabzavorga hokim qilib tayinlanadi. Alisher Sabzavorda o‘qishni davom ettiradi.

1452-1457-yillarda u dastlab Sabzavorda, so‘ng shahhadda yashagan. She’rga, musiqaga mehri oshib, Farididdin Attor, Nizomiy Ganjaviy, Shayx Sa’diy, Xusrav Dehlaviy asarlarini sevib o‘qigan. Ayniqsa, Attorning «Mantiq utayr» («Qush nutqi») kitobi yosh Alisherning xayolini

tamom egallab oldi. Ota-onasi tashvishga tushib, bu kitobni yosh Alisherdan olib, bekitib qo'yishadi. Lekin Alisher kitobni butunlay yod olgan edi.

Bular bejiz ketmadi. Bo'lajak shoir yetti-sakkiz yoshlardan she'r mashq qila boshladi. Ikki tilda she'r yozdi, o'zbekchalariga «Navoiy», forschalariga «Foni» taxallusini qo'ydi. «Navoiy» «navo» – «kuy» so'zidan olingan, «Foni» esa forschada «vaqtincha» ma'nolarini berar edi.

Shunday qilib, Navoiy 12 yoshlarida o'z she'rlari bilan zamonasining eng mashhur shoirlarini hayratga soldi. Masalan, to'qson yoshli Mavlono Lutfiy uning:

Orazin yopg'och, ko'zumdin sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh, –

satrlari bilan boshlanadigan bir she'rini tinglab, qoyil qolgandi.

She'r chindan ham go'zal edi. Undagi xayol mislsiz edi. «Yor yuzini yopgach, ko'zimdan har lahza yosh sochiladi. Bu go'yo quyosh botganida yulduzlar paydo bo'lgani kabitdir», – deb yozgan edi yoshgina shoir.

1457-yilda Abusaid Mirzo taxtga chiqdi. Alisherning maktabdosh do'sti Husayn Boyqaro taxt uchun kurashga tushib ketdi. Alisher Mashhad madrasalarida o'qishni davom ettirdi.

U Hirota 1464-yilda keladi, lekin ko'p o'tmay Samarqandga ketishga majbur bo'ladi. Samarqandda u 1469-yilga qadar yashadi. Temuriylarning bosh shahri buyuk shoir hayotida o'chmas iz qoldirdi. Bu haqda u ko'p yozgan.

Nihoyat, Alisherning maktabdosh do'sti Husayn Boyqaro taxtga chiqishi bilan uni Hirota chaqirib oladi va muhr dor qilib tayinlaydi. 1472-yildan vazirlik martabasiga ko'tariladi, 1487-1488-yillarda Astrobodda hokim bo'ladi. Umrining oxiriga qadar sultonning eng yaqin kishisi bo'lib qoladi. Shu yillari mamlakat osoyishtaligi, yurt obodligi yo'lida ulkan ishlarni amalga oshiradi.

Alisher Navoiy umr bo‘yi badiiy ijod bilan ham
top ullandı. Yettita she’riy devon tuzdi. Nizomiy
javaviyning besh dostonidan tarkib topgan «Panj ganj» («Besh
sa’ma»)iga javob sifatida o‘zining mashhur «Xamsa»sini
yazdi. O‘ndan ortiq nasriy asar yaratdi. Bu asarlar, mana, besh
doston oshibdiki, mumtoz adabiyotimizning cho‘qqisi bo‘lib
borildi.

Buyuk shoir 1501-yilning 3-yanvarida Hirotda vafot etdi”.
Shundan so‘ng “Hayrat ul-abror” dostonidan olingan
bilan durroj” hikoyati rollarga bo‘lib o‘qiladi.

IV. Mustahkamlash.

O‘quvchilarni Alisher Navoiy hayoti va
ijodiga oid ma’lumotlarni qay darajada
lashtirganini tekshirish uchun 2ta shartdan
oydalaniładi.

1-shart. “To‘g‘risini top” usulidan
oydalaniładi. Buning uchun o‘quvchilar 3
uruhgaga bo‘linadi. Har bir guruhga Alisher
Navoiy hayoti va ijodiga doir to‘g‘ri va noto‘g‘ri
ma’lumotlar aralsash tarzda taqdim etiladi.



To‘g‘ri ma’lumotlar:

1. Alisher navoiy 1441-yilning 9-fevralida Hirotda shahrida
ilgan.
2. Shoir forscha she’rlariga “Foni” taxallusini qo‘llagan.
3. Navoiy 7 ta devon tuzgan.
4. Alisher Navoiy muhrdor vazifasida ishlagan.
5. Buyuk shoir 1501-yilning 3-yanvarida Hirotda vafot
etdi.

Noto‘g‘ri ma’lumotlar:

1. Navoiyning otasi mashhur tarixchi Sharafiddin Ali
Vazdiy edi.
2. Navoiy 1487-1488-yillarda Samarqandda hokimlik
jildi.

3. Navoiyning eng mashhur asarlardan biri “Panj ganj” asaridir.

4. Alisher Navoiy Lutfiyning “Mantiq ut-tayr” asarini yod olgan.

5. Alisher Navoiy faqat o‘zbek tilida she‘r yozgan.

O‘quvchilar ushbu ma‘lumotlarni “T jadvali” ga joylashtirishi lozim. Tez va to‘g‘ri bajargan guruh g‘olib sanaladi.

To‘g‘ri

Noto‘g‘ri

2-shart. “Hayrat ul-abror” dostonidagi 10-maqolot yuzasidan o‘tkaziladi. Bunda har bir guruhga rasmlar taqdim qilinadi. O‘quvchilar rasmga qarab Alisher Navoiy qo‘llagan o‘xshatishlardan foydalangan holda to‘g‘rilik va egrilikka ta’rif beradilar.

I guruhga: nay va tanbur, eriyotgan sham va yashin





II guruhga: nayza va arqon, chizg'ich



III guruhga: Sham va parvona, yo'l



Masalan, birinchi guruh o'quvchilari quyidagicha javob berishi mumkin:

Shoir to'g'rilikni nayga, egrilikni tanburga qiyoslab, birining to'g'ri bo'lganligi uchun sevimli ekanligini, ikkinchisi yiligi sababli doim qulog'i buralishi ta'kidlaydi. Shuningdek, o'tgo'y odam doimo qiyalsa ham, lekin buy o'ldan qutmaydi. Xuddi shamga o'xshab boshdan - oyoq kuysa ham, lekin so'ngida nurga aylanadi. Yolg'onchilar esa, yashin singari joy etib yonsa ham, lekin oxiri baribir yerga kiradi.

Shu tarzda o'tilgan mavzu mustahkamlanadi.

“Sher bilan durroj” hikoyati “Aqliy hujum” usuli orqali quyidagi savollar beriladi:

1. Hikoyat nima haqida?
2. Hikoyatning asosiy qahramonlarini sanang.
3. Voqeа qanday boshlangan edi?
4. O‘zaro do‘stlik va hamjihatlik g‘oyasi kimdan chiqdi?
5. Sherda qo‘rkoqlig alomati bormi?
6. Do‘stlar va’dalarining ustidan chiqishdimi?

Shundan so‘ng hikoyat matni ustida ishslashga o‘tiladi. Hikoyatni o‘quvchilar navbatdan baytma-bayt o‘qishadi. Tushunarsiz so‘zlar va ularning ma’nosi lug‘at daftarga yozib boriladi. O‘qituvchi yordamida o‘quvchilar baytlarning nasriy bayonini tuzib boradilar.

Matn mazmunini to‘la va ongli tarzda o‘zlashtirish uchun ayrim savol va topshiriqlardan beriladi:

1. Sherning ona sifatidagi holati mujassamlashgan baytlarni toping. Berilgan lug‘atlardan foydalanib, ularni izohlang.
2. Quyidagi baytni o‘qing. Unda qanday axborot mavjudligini tushuntiring.

Ko‘ngli bu ishdin bo‘lub ozorliq,
Boshladi durroj bila yorliq.

3. Matnda sher nutqi berilgan. O‘sha parchalarni toping. Ularni ifodali o‘qing. Sherning qanday maqsadi bo‘lganini tushuntiring. Nutqingizda quyidagi lug‘atdan foydalanishga harakat qiling:

Ayrim so‘zlar lug‘ati:

Qasd-u kin – qasd va gina-kudrat;
Emin – emin, omon, xotirjam;
Aysh-u tarab – xursandchilik, shodlik;
Lahn – ohang, kuy, tovush, un;
Nag‘ma – kuy, tarona;
Gazand – zarar, ziyon;
Hamdast – qo‘ldosh, ko‘makchi, sherik;
Xasm – dushman, yov, raqib;
Aduv – dushman;
Dom – tuzoq

4. Sher bilan Durrojning osuda, tinch va xotirjam hayotlari
jidagi baytlarni toping. Ularni o'qing va izohlab bering.

5. Durrojning tuzoqqa tushish holati qanday ifodalangan?

6. Durrojning chindan ham yordam so'rab qilgan faryodi
uchun javobsiz qoldi? Hikoyada shu holat aks etgan
alarni toping. Uni o'qib mazmunini o'z so'zlarining bilan
shuntirib bering.

4-topshiriq. Testni yeching.

1. Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid noto'g'ri
lumotni aniqlang.

A. Navoiy 1472-yili vazirlilik martabasiga ko'tariladi.

B. Adib 1487-88-yillarda Astrobodda hokim bo'ladi.

C. Shoir 10 ta she'riy devon tuzgan.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

2. "Hayrat ul-abror" dostonida adib to'g'rilikning
xil yo'li bor deb ko'rsatadi?

A. 2 B. 3 C. 4 D. 5

3. "Sher bilan durroj" hikoyatida sherning bolalari
sababdan halok bo'lar edi?

A. Chumolilar sherning bolasini talab o'ldirar edi.

B. Sher o'z bolasini o'zi tishlab halok qilar edi.

C. Ovchilar hujumidan halok bo'lar edi.

D. Durrojning hiylasi tufayli halok bo'lar edi.

4. "Hayrat ul-abror" dostonining o'ninchi maqolati
mavzuga bag'ishlangan?

A. Hirot ta'rifiga B. Odob-axloq tavsifiga

C. Rostlik, to'g'rilik tushinchalariga

D. Do'st va do'stlik shartlariga

5. "Hayrat ul-abror" dostoni necha bob, necha
maqolatdan iborat?

A. 64 bob, 20 maqolat B. 20 bob, 20 maqolat

C. 20 bob, 10 maqolat D. 63 bob, 20 maqolat

V. Uyga vazifa: "Sher bilan durroj" mavzusida insho
ib kelish.

MAVZU: ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA IJODI. RUBOIYLAR

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: Bobur hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish ruboiylarni tahlil qilish.

Tarbiyaviy: O‘quvchilarga mehr-oqibat, ona vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘ularini singdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilar so‘z boyligini orttirish, nutqini o‘stirish, dunyoqarashini kengaytirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “To‘g‘risini top”, “Guruhlarga ajrat”usuli, kichik guruhlarda ishslash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- d) ma’naviyat daqiqasi:

Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig‘,

Yor o‘ling bir-biringigakim erur yorlig‘ ish.

(Alisher Navoiy)

Doskaga ushbu hikmatli so‘z yoziladi. O‘quvchilar hamda o‘qituvchi hamkorligida o‘qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so‘rash:

“Alisher Navoiy hayoti va ijodi. “Sher bilan durroj” hikoyati” mavzusi yuzasidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o‘quvchilar qanday bajargani tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O‘qituvchi Bobur haqida qisqacha ma’lumot

beradi:

“Bobur ham shoh, ham shoirdir. «Bobur» o‘sab tilida «sher» degani. Chindan ham u bu nomiga munosib shaxs edi. U tariximizning muhakkab bir davrida yashadi. Qudratli temuriylar sultanati amirilib, o‘rniga shayboniyalar kelayotgan davr edi. Yurt jang-o‘sod dallar ichida qolgandi. Shunday bir paytda o‘z yurtiga imagan temuriyzoda Bobur Hindistonga bosh olib ketdi. U yurdida buyuk sultanatga asos soldi. O‘z jasorati va adolati bilan o‘sib hind xalqi qalbidan joy oldi, uning mehrini qozondi. Boburning avlodlari hind diyorida uch yuz yildan ortiqroq bolimronlik qildilar.

Bobur didi va zavqi baland shoир edi. U go‘zal g‘azallar yordi. Ruboiyning tengsiz namunalarini yaratdi. Ko‘rgan-chirgan voqealari haqida «Boburnoma» asarini yozib yoldirdi. Uning qalbi musiqaga oshno edi. U sozni go‘zal halgan, ajoyib kuylar yaratgan, musiqa haqida ilmiy kitob yozgan shohlardan edi.

Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda tug‘ildi. Otasi temuriyzoda Umarshayx Farg‘ona viloyati hukmdori edi. Onasi qutlug‘nigorxonim Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi.

Otasi bevaqt vafot etgach, Farg‘ona hokimligi 12 yoshdagidan boburning zimmasiga tushdi. 15 yoshida bobomeros umarqandni zabt etadi. 16 yoshida bu azim shaharni tashlab bo‘lqishga majbur bo‘ladi. Keyin ham ikki marotaba bu shaharni qallashga muvaffaq bo‘ldi. Lekin saqlab qolish nasib etmadidi. Umarqandni ham, Andijonni ham qo‘ldan berib, tog‘-u shohlarda besh-o‘n yigit bilan goh otliq, goh yayov yurgan boytlari ham bo‘ldi. Nihoyat, 1503-yilda Jayhun (Amu)ni to‘chib, Xurosonga o‘tdi. Kobul va G‘aznani qo‘lga kiritdi. 1526-yilda Hindistonni zabt etib, boburiylar sultanatiga o‘sdi soldi.



Bobur 1530-yilning 26-dekabrida Agrada vafot etdi. Keyinroq uning xoki, vasiyatiga muvofiq, Kobulga ko'chiriladi.

Bobur ikki she'riy to'plam - devon tuzgan. Bizgacha shulardan bittasi yetib kelgan. Ikkinchisining taqdiri noma'lum. Hozirda bizning qo'limizda uning to'rt yuzdan ortiq she'ri bor. Shundan ikki yuzdan ortig'i ruboiydir.

Bobur bugun xalqimizning sevimli farzandlaridan biridir. U haqda dostonlar, romanlar yozilgan, kinofilmlar ishlangan. Andijon va Toshkentda ulkan bog'lar barpo etilib, u joylarga Bobur nomi berilgan va haykali o'rnatilgan".

Shundan so'ng ruboiylar o'qiladi.

IV. Mustahkamlash.

1-topshiriq. Ruboiylar tahlili yuzasidan savollarga javob bering.



1. "Yod etmas kishini g'urbatda kishi..."
ruboysi qanday mavzuda yozilgan?

2. "Ko'pdan berikim yor-u diyorum yo'qtur..."
ruboisiyidagi ohangdosh so'zlarni tagiga chizing.,

3. "Jismimda isitma kunda makham bo'ladur" misralari boshlanuvchi ruboiyda g'am bilan sabr nimalarga qiyoslangan?

4. "Sen gulsen-u men haqir bulbuldurmen" misralari bilan boshlanuvchi ruboiyda o'zaro qarama-qarshi ma'noli so'zlarni ajratib ko'rsating.

5. "Ey yel, borib ahbobqa nomimni degil" misralari bilan boshlanuvchi ruboiyini nasriy bayonini tuzishga harakat qiling.

6. Boburning qaysi ruboiylari axloqiy-ta'limiy yo'nalishda yozilgan?

2-topshiriq. Ruboylarning misralarini to'g'ri ketma-ketlikda joylashtiring.

Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi.

G'urbatda sevinmas emish, albatta, kishi.

Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,

Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi.



* * *

Ulz, oh, Zahiriddin Muhammad Bobur!
Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur!
Sarrishtayi ayshdin ko‘ngulni zinhor
Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.

* * *

Kim bor anga ilm tolibi – ilm kerak.
Men bormen ilm tolibi – ilm kerak.
Men tolibi ilm-u tolibi ilme yo‘q,
O‘rgangani ilm tolibi ilm kerak!

3-topshiriq. Testlarni yeching.

1. Bobur hayoti va ijodiga oid noto‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.

A. Bobur 1526-yilda Hindistonni zabt etib, katta sultanat matgan.

B. Bobur ikkita devon tuzgan. Shulardan bittasi yetib kelgan.

C. Boburning xoki, vasiyatiga muvofiq. Samarqandga o‘chiriladi.

E. Shoir 1530-yil agrada vafot etgan.

2. Boburning qancha she‘ri bizgacha yetib kelgan?

A. 200 dan ortiq B. 1000 dan ortiq D. 225 ta

E. 400 dan ortiq

**3. Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen,
Ham mol yig‘ishtirur laim ermasmen.
Kobulda iqomat etti Bobur, dersiz,
Andoq demangizlarkim, muqim ermasmen. Ajratib ho‘rsatilgan so‘zning ma’nosini aniqlang.**

A. Kishansiz B. Qora D. Gado E. Oltin-kumush

4. Boburning qaysi ruboysiда qayg‘uli holning tasviri ўу, uning hazil-mutoyibali ifodasini mushtarak tarzda tasvirlagan?

- A. “Har kimki, vafo qilsa, vafo topqusidur”
- B. “Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen”
- D. “Hajringda bu tun ko‘ngulda qayg‘u erdi”
- E. “Jismimda isitma kunda mahkam bo‘ladur”

5. Boburning qaysi ruboysi yaxshilikning sharofati, yomonlikning kasofati haqida?

- A. “Har kimki, vafo qilsa, vafo topqusidur”
- B. “Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen”
- D. “Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi”
- E. “Jismimda isitma kunda mahkam bo‘ladur”

V. Uyga vazifa. Darslikda berilgan savol va topshiriqlarni bajarish.

MAVZU: MUQIMIY HAYOTI VA IJODI. “SAYOHATNOMA” ASARI.

Darsning maqsadi:

Ta'limiylar: Muqimiy hayoti va ijodi haqida ma'lumot tarish, “Sayohatnoma” janri bilan tanishtirish va tahlil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda yaxshilik, hurmat, do'stlik, halollik kabi ijobiy sifatlarni rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilar so‘z boyligini qorish, nutqini o‘stirish, dunyoqarashini kengaytirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalilaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “To‘p’risini top”, “Guruhlarga ajrat”usuli, kichik guruhlarda aralash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid materiallar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- c) ma’naviyat daqiqasi;

Yurgan – daryo, o‘tirgan – bo‘yra.

(Maqol)

Doskaga ushbu maqol yoziladi. O‘quvchilar hamda o‘qituvchi hamkorligida o‘qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so‘rash:

“Bobur hayoti va ijodi. Ruboiylar” mavzusi yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarni o‘quvchilar qanday bajarGANI tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O‘qituvchi Muqimiy haqida quyidagicha ma'lumot beradi:



“O‘n to‘qqizinchi asrning ikkinchi yarmi va yigirmanchi asrning boshlarida ravnaq topgan milliy uyg‘onish adabiyotining zabardast vakillaridan biri Muhammad Aminxo‘ja Muqimiydir.

Muhammad Aminxo‘ja Mirzaxo‘ja o‘g‘li Muqimiy 1850-yilda Qo‘qon shahrida Bekvachcha mahallasida, novvoy oilasida tug‘ilgan.

Muqimiy dastlab o‘z mahallasidagi mulla Abduxalil maktabida tahsil oladi. Shoirning ilm o‘rganishi va badiiy ijodga erta qiziqishida uning validasi, qobiliyatli ayol Oyshabibi aytib bergen ko‘plab ertak va qo‘shiqlarning ta’siri kuchli bo‘lgan.

Muqimiy dastlab Qo‘qondagi «Hokim oyim» madrasasida ta‘lim oladi. 1872-1873-yillarda Buxoroga borib, u yerdagi «Mehtar anbar» madrasasida o‘qishni davom ettiradi. 1876-yilda o‘qishni tamomlab, Qo‘qonga qaytadi. Uylanadi. Shoir dastlab yer qurilishi mahkamasida mirzalik, so‘ngra Sirdaryo yoqasida joylashgan Oqjardagi paromda pattachilik qiladi.

Moddiy muhtojlik Muqimiy oilasining buzilishiga olib keladi. Xotini o‘g‘lini onasiga tashlab, boshqa kishiga tur mushhga chiqadi. Shoir o‘z ota hovlisini tark etib, shu mahallada joylashgan Hazrat madrasasidan bir hujra oladi. Shu «hujrayi tang va torlikda bekaslik va g‘ariblik chirog‘ini yoqib» muhtojlikda umr o‘tkazadi.

Muqimiy hayotini mutolaa va ijod qilishga bag‘ishlaydi. Zamonasining yetuk xattotlaridan bo‘lgan Muhammad Yusuf xattotdan ta‘lim olib, xushxat kotib bo‘lib yetishgan Muqimiya xattotlik asosiy kasb va tirikchilik manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

Bu davrga kelib Muqimiy o‘zining jo‘shqin lirikasi va davrning hukmron ijtimoiy guruhlarini achchiq tanqid ostiga oluvchi hajviy asarlari, humorlari bilan shuhrat qozonadi. O‘z davri adabiy harakatining yetakchilaridan biriga aylanadi. Muqimiy Qo‘qonda Furqat, Zavqiy, Nisbat, Muhayyir,

Uaribiy, Nasimiy, Mavlaviy va boshqa shoirlardan tashkil topgan yirik adabiy guruhga boshchilik qiladi.

1885-1886-yillarda shoirning otasi Mirzaxo‘ja vafot etadi. Ulanı boqish shoir zimmasiga tushadi. Muqimiyning ahvoli manada mushkullashadi. Shoir bu ahvoldan qutulish yo‘llarini baydi. Shu sababdan bo‘lsa kerak, 1887-1888-yillarda o‘qonni tark etib, Toshkentga boradi. 1892-yilning boshlarida shoir ikkinchi marta Toshkentga yo‘l oladi. Muqimiyl Toshkent ufan vaqtida ota yurtidagi qarindosh-urug‘larini topadi, do‘stlar orttiradi. Muqimiyl Farg‘ona vodiysining shahar va qılıqlariga ham bir necha marta sayohatga chiqadi.

Muttasil davom etgan moddiy muhtojlik, kamsitish va qiblar shoir sog‘lig‘iga ta’sir qilgan edi. 1898-1899-yillarga kelib Muqimiyl tez-tez kasalga chalinib, 4-5 oylab yotib qoladi va xastalik tufayli 1903-yilda 53 yoshida, ayni ijodiy kamolotga qaynay paytda vafot etadi.

Muqimiyl lirikaning g‘azal, muxammas, murabba, masnaviy, ruboiy, tuyuq, fard kabi janrlarida barakali ijod qildi. Bu adabiy shakllarning takomiliga ham jiddiy hissa qo‘shdi.

O‘z davri adabiyotida sayohatnomaga janrining shakllanishi va takomilga erishuvida hassos shoirimiz Muqimiyning xonmati, ayniqsa, katta. Muqimiyni o‘zbek adabiyotida mukammal ko‘rinish olgan, adabiy an'anaga aylangan sayohatnomaga janrining asoschisi deya olamiz”.

Shundan so‘ng “Sayohatnomalar” o‘qiladi. Tahlil qilinadi. Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar beriladi.

IV. Mustahkamlash.

1- topshiriq. Qo‘qondan Shohimardonga” va “O‘qondan Farg‘onaga” qilgan sayohatlarida duch olgan manzillarini ketma-ketlikda yozing.



O'ltarma

Qudash

2-topshiriq. Adib "Qo'qondan Shohimardonga" soyahatida quyidagi manzillarni ularga mos rasmlar bilan birlashtiring.

Do'rmoncha Bo'rbaqliq Roshidon Oltiariq



3-topshiriq. Nuqtalar o'rniga mos joy nomlarini qo'ying.
..... agarchi xushhavo,
Odamlari yengilnamo,
Bir-birlarila doimo
Bo'lar-bo'lmasga jang ekan.

..... kabi bir joy kam,
Tushmay o'tib qildi alam,
Olma, anor o'rniga ham
Bog'ida tok-u zang ekan.

Ko'p odamidin
Bog'larda ekmishlar tariq.
Yetim haqi - go'shti baliq,
Qilmishlari nayrang ekan.

... ajoyib joy ekan,
Bir ko'cha ketgan soy ekan,
Salqin supa hoy-hoy ekan,
Kim ko'rsa, hang-u mang ekan.

Tayanch so'zlar: «Rafqon» «Yayfan» «Nursux»
hariq»

Topshiriq. Testni yeching.

1. Muqimiylar qayerning "dashti
roqchizor"ligidan noliydi?

- A. Oq yerni
- B. Yayfanni
- C. Do'rmonchani
- E. O'Itarmani

2. *Qishloq juvoni yig'lishib,
Isig'da o'ynashgay pishib,
Otgan tamoshobin tushib,*

Seshanba kun bozor ekan... "Sayohatnoma" dan
ushbu parchada qaysi qishloq tasvirlangan?

- A. Yakkatut
- B. Nursux
- D. Rafqon
- E. Rabot

3. Muqimiylar qayerda duch kelgan?

- A. Tikka Rabotda
- B. Isfarada
- D. Nursuxda
- E. Rafqonda

4. *Aflok kajraftor uchun,
Har dam ko'ngul afgor uchun,
Ho'qand tang-u tor uchun,*

Sahro chiqish darkor ekan. Muqimiyning qayerga
sayohati yuqorida misralar bilan boshlanadi?

- A. Qo'qondan Marg'ilonga

B. Qo‘qondan Shohimardonga

D. Qo‘qondan Isfaraga

E. Qo‘qondan Farg‘onaga

5. Sayohatnomaning ichki tuzilishi to‘g‘ri berilgan qatorni aniqlang.

A. Allohga hamd, sayohatga chiqish sabablari, sayohatdan muayyan xulosa

B. Qisqacha tarjimayi holi, sayohatga chiqish sabablari xulosa

D. Sayohat foydalari to‘g‘risida mulohaza, sayohatga chiqish sababi, xulosa

E. Kirish, yo‘l xotiralarining bat afsil bayoni, xulosa

V. Uyga vazifa: Darslikdagi savol va topshiriqlarni bajarish.

Mavzu: Sa’diy Sheroziy hayoti va ijodi.

“Guliston” va “Bo‘ston” asarlari

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: Sa’diy hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish, “Guliston” va “Bo‘ston” asarlari bilan tanishtirish va tahlil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda yaxshilik, hurmat, do‘stlik, halollik kabi ijobjiy sifatlarni rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilar so‘z boyligini orttirish, nutqini o‘sirish, dunyoqarashini kengaytirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “To‘g‘risini top”, “Guruhlarga ajrat”usuli, kichik guruhlarda ishslash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- c) ma'naviyat daqiqasi:

So'zni ko'ngilda pishqarmaguncha tilga keltirma,

Vu harnekim, ko'ngilda bor – tilga surma.

(Alisher Navoiy)

Doskaga ushbu hikmatli so'z yoziladi. O'quvchilar hamda o'qituvchi hamkorligida o'qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so'rash:

Muqimiy hayoti va ijodi. "Sayohatnoma"asari" mavzusi uzo'sidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o'quvchilar unday bajargani tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O'qituvchi Sa'diy Sheroziy haqida quyidagicha ma'lumot beradi:

U kishining ismi sharifi Shayx Muslihiddin Sa'diy sheroziyidir. «Shayx» deb ko'proq so'fiylar boshlig'iga, din u bo'blariga nisbatan aytilgan. Taxallusidan ma'lum bo'lganidek, sherozlik. Sheroz Eronning mashhur haharlardan.

Sa'diy nomini dunyoning juda ko'p mamlakatlarida tiladilar. Sharqda u qanchalar hurmat bilan tilga olinsa, arbda ham bu shoirning e'tibori shuncha baland.

Sababi nimada? Sababi shundaki, u ajoyib g'azallar yozdi. Bu g'azallar hikmatli fikrlarga boy edi. Go'zal o'xshatishlarga, qurli manzaralarga to'la edi. Masalan:

Ey sarbon, ohista ron oromi jonam meravad, - deb boshlanar edi bir g'azali.

Tuya yetaklovchini, karvonboshini «sarbon» deydilar. Oliniq shoir unga qarata iltijo etmoqda:

Ey sarbon, ohista yur, oromijonim boradur,..

Ko‘z oldingizga keltiring. Bepoyon sahro, karvon ohista yo‘lga tushmoqda. Ilojsiz oshiq uning atrofida parvonadek aylanadi, karvonni qo‘yib yuborgisi kelmaydi. Chunki bu karvonda uning joni, jahoni ketib bormoqda. Forschadagi «sarbon - ohista ron, oromi jon» so‘zlaridagi ohangdoshlik - ichki qofiya shu bir satrning o‘zidayoq nolakor musiqa yaratadi. Ayni paytda, qalqib-qalqib borayotgan tuyalar qatori, ular o‘rkachi ustida bir maromda tebranayotgan mahofalar (odam o‘tirib ketishga mo‘ljallangan, avtomobil kabinasini esga tushiruvchi moslama uychalar). Bir satrda shuncha ma’no, shuncha ohang, shuncha dard bor edi. Shuning uchun ham shoirni Eronda qanchalar sevsalar, Turkistonda ham shuncha sevadilar. Eron-u Turkistonni qo‘ying, fransuz Volter, nemis Gyotelar ham o‘z asarlarida uning she’rlariga murojaat qilgan.

U Sherozda o‘ziga to‘q va ma’rifatlari bir xonadonda o‘sib ulg‘aygan. Uzoq umr ko‘rgan. Tug‘ilgan yilini har xil (1184, 1189, 1203, 1210) ko‘rsatadilar. 1292-yilda vafot etgan. Umrining 20 yilidan ko‘prog‘i sayohatda o‘tgan. Afrikadan Xitoygacha, Hindistondan Farangistongacha kezib chiqqan. Musofirlikning, hatto asirlikning azoblarini ko‘rgan. Bu sayohatlari davomida ko‘rgan-bilganlarini umumlashtirib, sayqallab «Bo‘ston» (1257-yilda yozilgan) hamda «Guliston» (1258) asarlariga ixcham hikoyalar qilib kiritgan.

«Guliston», «Bo‘ston» asarlarini Alisher Navoiy sevib o‘qigan. U o‘zining «Lison ut-tayr» («Qush tili») asarida buni alohida ta‘kidlab aytadi. Haqiqatan ham, bu asarlar o‘tmishda sho‘rolar tuzumi o‘rnatilgunga qadar ham eski maktablarda darslik sifatida o‘qitilar edi. XX asr boshida yetishib chiqqan jadid ma’rifatchilarimiz bu kitoblardan ilhom olib yangi darsliklar yaratdilar. Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asari shundaylardan edi.

«Guliston» asari so‘nggi olti-yetti asr davomida o‘zbek tiliga bir necha bor tarjima qilingan. «Bo‘ston» 1960-yilda o‘zbekchaga o‘girildi”.

Shundan so‘ng o‘quvchilar “Guliston” va “Bo‘ston” asarida keltirilgan hikoyatlarni o‘qiydi. Hikoyatlar yuzasidan topshiriqlar beriladi.



IV. Mustahkamlash.

1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. “Hunar o‘rganmoq” hikoyati oxirida berilgan she’rni qiling. Uni hikoyat matniga bog‘lab izohlang.

2. Sa’diy daryo ko‘rmagan qulni nima uchun tanqid qiladi? Hikoya matni asosida javob bering.

3. O‘g‘ilning nomunosib harakati uchun zindonga tushgan darvesh hikoyasida Sa’diy qanday g‘oyani olg‘a surgan?

4. “Ayb qidirmaslik” matnida “Ey odil, tikanmas, gulni qutqa qil” degan misra bor. U qanday ma’noni anglatadi?

5. Hayit kuni adashib qolgan bolaning qanday o‘ziga osliklari bor? Muallif bu hikoya orqali nima demoqchi?

6. “Adolatli podshoh” haqidagi hikoyatda Jamshid podshoh tomonidan buloq boshiga yozilgan bir hikmat bor. Hbu hikmatni hikoyaga bog‘lab izohlab bering.

2-topshiriq. Testni yeching.

1. Sa’diy Sheroziy qaysi asarida bir yig‘inda shaharning qimmatbaho kiyimlariga burkangan kazolazolari yecholmagan masalani poygakda o‘tirgan eski to‘n yopingan darvesh yechib bergenini va o‘sha darvesh men o‘zim edim deb tugatgan hikoyasi keltirilgan?

- A. “Guliston”
- B. “Guliston” asarida bit turkiy
- C. “Turkiy guliston yohud axloq”
- D. “Bo‘ston”

2. “Daryo ko‘rmagan qul hikoyati” qaysi asarda uchraydi?

- A. “Guliston” asarida
- B. “Bo‘ston”

D. “Hayrat ul-abror”

E. “Boburnoma”

3. “..hunar chashmayi ravon va davlati bepoyondurkim, agar hunarmand odam davlatdin tushsa, hech g‘am va alami yo‘qdur. Nedinkim, hunar aning zotida ulug‘ davlatdur va har yergakim borsa, sohibi qadr bo‘lur va majlisning yuqorisida o‘lturur va hunarsiz kishi gadoylik qilur va har joygakim borsa, beqadr va bee’tibor bo‘lur”. Ushbu fikrlar qaysi asardan olingan?

A. “Guliston”

B. “Bo‘ston”

D. “Hayrat ul-abror”

E. “Mahbub ul-qulub”

4. *Ota merosini gar istasang, o‘rgan ota ilmin,*

Ki qolgan mol otadin sahl muddatda tamom o‘lg‘ay.

Ushbu misralar qaysi asardan olingan?

A. “Guliston”

B. “Bo‘ston”

D. “Hayrat ul-abror”

E. “Mahbub ul-qulub”

5. “Ofiyat qadrin bir musibatg‘a griftor bo‘lg‘on kishi bilgusidur”. Ushbu xulosa Sa’diyning qaysi hikoyatiga hamohang?

A. Hunar o‘rganmoq haqida

B. Daryo ko‘rmagan qul hikoyati

D. Ayb qidirmaslik haqida

E. Darvesh hikoyati

MAVZU: ABDULLA AVLONIY HAYOTI VA IJODI. HIKOYALAR TAHLILI

Darsning maqsadi:

Ta'limi: Abdulla Avloniy hayoti va ijodi haqida malumot berish. “Chin do'st”, “Yolg'on do'st”, “Xurus ilo bo'ri”, “Janjachilikning zarari” hikoyalari bilan tanishtirish va tahlil qilish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarni haqiqiy va soxta do'stlik shartlari bilan tanishtirish, o'zaro hurmat tuyg'ularini singdirish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nuzqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so'z boyligini oshirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “To'g'risini top”, “Guruhlarga ajrat” usuli, kichik guruhlarda aralash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid nammlar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog'ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- d) ma'naviyat daqiqasi:

Ushoq qand oq tuzga monand erur,

Va lekin biri tuz tuz, biri qand erur .

(Alisher Navoiy)

Doskaga ushbu hikmatli so'z yoziladi. O'quvchilar hamda o'qituvchi hamkorligida o'qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so'rash:

“Sa’diy Sheroziy hayoti va ijodi” mavzusi yuzasidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o‘quvchilar qanday bajargani tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O‘qituvchi adib haqida quyidagi ma’lumotlar bilan o‘quvchilarni tanishtiradi:

Abdulla Avloniya hayoti va ijodidagi muhim tarixiy sanalar:



1878-yil 12-iyul	Toshkent shahrining Mergancha mahallasida humarmand-to‘quveli oilasida tug‘ildi.
1890-yil	O‘qchi mahallasidagi boshlang‘ich mактабга o‘qishni tugatdi.
1894-yil	Abdulla Avloniyning ilk she’riy mashqlari bitilgan
1905-yildan	O‘z mashqlari bilan matbuot sahifalarida qatnasha boshladi.
1905-1908- yillar	Gazetchilik bilan shug‘ullandi.
1907-yil 4-dekabr	Avloniy muharrirligida bu «Shuhrat» gazetaning birinchi soni bosmadan chiqdi.
1909-yil	«Jamiyat xayriya» tashkilotini ochdi
1913- yil	«Turon» jamiyatini ochdi.
1919-1920-yillar	Diplomatik vazifalarda ishladi.
1927-yilda	«Mehnat qahramoni» unvoni bilan taqdirlandi.

1930-yilda

«O'zbekiston xalq maorifi zarbdori» unvoni berildi.

1934-yil 25-avgust Abdulla Avloniy vafot etdi.


Asarlari

«Birinchi muallim» (1909)	«Ikkinchi muallim» (1912)	«Turkiy Guliston yoxud axloq» (1913)	«Maktab gulistoni» (1916)	«Adabiyot yoxud milliy she'rlar» (1909-1916)
---------------------------	---------------------------	--------------------------------------	---------------------------	--

Shundan so'ng darslikda berilgan hikoyalar o'quvchilar nomonidan o'qiladi.

IV. Mustahkamlash.

1-topshiriq. Abdulla Avloniy qanday moliyatlar bilan shug'ullangan? Ularni quyidagi shaklga joylashtiring.



2-topshiriq. Testni yeching.

1. Abdulla Avloniy ochgan qaysi tashkilot o‘z oldiga sahna ishlariga qiziqish uyg‘otish, xalq uchun spektakllar qo‘yib berish va ular orqali ommaga ma’naviy oziq berish; klub, musiqa kurslari, kutubxona va qiroatxonalar ochish; o‘quvchilarga moddiy yordam ko‘rsatish kabi vazifalarni qo‘ygan edi?

A. “Turon” jamiyat B. “Shuhrat” gazetasi

D. “Jamiyat xayriya” tashkiloti

E. “Osiyo” nashriyoti

2. Abdulla Avloniy hayoti va ijodiga bog‘liq noto‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.

A. “Turon”jamiyat qoshida “Turon” teatrini ochgan.

B. 10 ga yaqin sahna asarlarini rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

D. Adib “Turon” teatri uchun 3 ta pyesa yozgan.

E. Barchasi to‘g‘ri

3. *Sening isming bu dunyoda muqaddasdur,*

Har kim sening qadring bilmas – aqli pastdur.

Sening tuyg‘ung yuraklarga savdo solur,

Sening darding boshqa dardni tortib olur. Ushbu misralar Abdulla Avloniyning qaysi she’ridan olingan?

A. “Vatanni suymak” B. “Ona vatan”

D. “Xalqim” E. “Vatan”

4. Abdulla Avloniyning “Vatan” she’ri qaysi kitobdan olingan?

A. “Turkiy guliston yohud axloq”

B. “Ikkinch muallim”

D. “Maktab gulistonji” E. “Birinchi muallim”

5. “Vatan” she’rida shoir vatanning qadrini bilmaganlarni nimaga o‘xshatadi?

A. Tuproqqa B. Xazonga

D. Bo‘riga E. Boyqushga

ERKIN VOHIDOV HAYOTI VA IJODI. “NIDO” DOSTONI

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: Erkin Vohidov hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish, “Nido” dostoni matni bilan tanishtirish va tahlil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga tinchlikni qadriga yetish, o‘quq urush keltirgan kulfatlarni tushuntirish orqali bugungi muntaqil vatanimizni qadrlash e’zolashga undash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma mitqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so‘z boyligini oshirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “lo‘g‘risini top”, “Guruhlarga ajrat”usuli, kichik guruhlarda iqlash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid namzarlar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar iqlash.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- d) ma’naviyat daqiqasi:

**Odami ersang demagil odami,
Oniki, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.**

(Alisher Navoiy)

Doskaga ushbu hikmatli so‘z yoziladi. O‘quvchilar hamda o‘qituvchi hamkorligida o‘qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so‘rash:

“Abdulla Avloniy” mavzusi yuzasidan darslikda berilgan avol va topshiriqlarni o‘quvchilar qanday bajargani tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O‘qituvchi adib haqida quyidagi ma’lumotlar bilan o‘quvchilarни tanishtiradi:

“O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov 1936-yil 28-dekabrda Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanida muallim oilasida tug‘ilgan. Uning otasi Ikkinchи jahon urushidan og‘ir jarohat olib qaytadi va 1945-yilda vafot etadi. Oradan bir yil o‘tgach, onasi ham dunyodan o‘tadi. O‘n yoshga yetar-yetmas ham ota, ham onadan ajrab qolgan yosh Erkinni tog‘asi o‘z tarbiyasiga oladi. Toshkentga tog‘asini kiga kelgan shoir qunt bilan o‘qishlarini davom ettiradi. Unda kitobga, adabiyotga havas juda erta uyg‘ondi.

E. Vohidov Toshkent davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning filologiya fakultetiga o‘qishga kiradi. Endilikda u adabiyotni tom ma’noda chuqur o‘rganishga kirishadi. Buyuk ijodkorlarning asarlarini berilib o‘qir ekan, ulardan badiiy mahorat sirlarini, so‘zga mas’uliyat hissini, soddalik va ravonlikni o‘zlashtirishga intiladi.

Erkin Vohidov universitetni tugatgach, uzoq yillar nashriyotlarda ishladi, o‘zbek va jahon adabiyotining eng sara asarlarini chop etishda faol ishtirok etdi. 1964-yilda yaratilgan «Nido» dostonidan so‘ng birin-ketin «Orzu chashmasi», «Palatkada yozilgan doston», «Quyosh maskani», «Ruhlar isyonii» kabi ajoyib dostonlar yozdi.

U ko‘plab mashhur jahon shoirlarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi. Xususan, E. Vohidov tarjima qilgan rus shoiri Sergey Yesenin she’rlari, nemis shoiri Gytowining «Faust» asari o‘zbek adabiy muhitida katta hodisa bo‘ldi. Shoir yangidan tashkil etilgan «Yoshlik» jurnalining bosh muharriri sifatida yoshlarning adabiyotga kirib kelishi uchun jonbozlik ko‘rsatdi.



E. Vohidovning ilk to‘plami 1961-yilda «Tong nafasi» nomi bilan chop etilgan edi. Shundan so‘ng birin-ketin «shiqlarim sizga», «Yurak va aql», «Mening yulduzim», «Nido», «Lirika», «Palatkada yozilgan doston», «Yoshlik devoni», «Charog‘bon», «Dostonlar», «Muhabbat», «Hozirgi shahlar», «Tirik sayyoralar», «Iztirob» kabi asarlari nashr etildi.

E. Vohidov faqat she’r va dostonlar yozibgina qolmay, bu shahqa janrlarda ham barakali ijod qildi. U dramaturgiya shahsida ham o‘z qalamini sinab, «Oltin devor», «Istanbul bojinası» kabi dramalar yaratdi. Ayniqsa, «Oltin devor» komediysi uzoq yillar o‘zbek teatri sahnasidan tushmay keldi.

E. Vohidov ellik yildan ko‘proq davr mobaynida ijod qigan asarlarini to‘plab, «Ishq savdosi», «She’r dunyosi», «Umr dunyosi» va «Ko‘ngil nidosi» nomli to‘rt jildlik saylanmasini quvchilarga taqdim etdi. Bu asarlar faqat shoir qalbining, techinmalarininggina emas, balki xalq hayotining ham bo‘zgusidir.

Shoir asarlarida hayotga, go‘zallikka muhabbat, yovuzlikka, tu- banlikka nafrat yaqqol sezilib turadi. Uning ilk dostoni – «Nido»da insoniyatga og‘ir judoliklar, bitmas jarohatlar keltiradigan urush qattiq qoralansa, keyinroq bitilgan «Ruhlar isyonix» dostonida xalqlar, millatlar, dirlar o‘rtasidagi nizolar bashariyatga naqadar katta falokatlar olib kelishi teran virlangan. Bu esa shoir ijodida insonparvarlik hamisha bosh mayzu bo‘lib kelganligini ko‘rsatadi.

Erkin Vohidovning el-yurt va adabiyot oldidagi xizmatlari mobatga olinib, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni va «O‘zbekiston Qahramoni» unvoni bilan taqdirlangan”.

Shoir hayoti va ijodi bilan tanishtirilgach, “Nido” dostoni qiladi.



IV. Mustahkamlash.

Testni yeching



1. Erkin Vohidovning ilk to‘plamini aniqlang.

- A. “Tong nafasi” B. “Yurak va aql”
D. “Yoshlik devoni” E. “Tirik sayyoralar”

2. Erkin Vohidovning qaysi asarida insoniyatga og‘ir judoliklar, bitmas jarohatlar keltiradigan urush qattiq qoralanadi?

- A. “Nido” B. “Palatkada yozilgan doston”
D. “Ruhlar isyoni” E. “Orzu chashmasi”

3. “Nido” dostonida qo‘ltiqtayoqda uyga qaytgan kim edi?

- A. Xol aka B. Rustamning akasi
D. Rustam E. Tal’at

4. “Nido” dostonida tasvirlangan urish payti qo‘lidan ayrilgan kim edi?

- A. Xol aka B. Rustamning akasi
D. Rustam E. Tal’at

5. “Nido” dostonida kimning dadasidan qoraxat keladi?

- A. O‘ktamning B. Rustamning
D. Xol akaning E. Tal’atning

V. Uyga vazifa: darslikda mavzu yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarni bajarish.

MAVZU: ABDULLA ORIPOV HAYOTI VA IJODI. “O’ZBEKISTON” SHE’RI TAHLILI

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: Abdulla Oripov hayoti va ijodi haqida o‘ta lumot berish. “O’zbekiston” she’ri matni bilan tanishtirish va tahlil qilish.

Tarbiyaviy: ona vatanga muhabbat, ajdodlarga hurmat uylularini singdirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma muntaqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so‘z bayligini oshirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalilaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “o‘g‘risini top”, “Guruhlarga ajrat”usuli, kichik guruhlarda aralash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid materiallar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- d) ma’naviyat daqiqasi:

**O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha o‘z yurtingda gado bo‘l.
(Maqol)**

Doskaga ushbu maqol yoziladi. O‘quvchilar hamda qituvchi hamkorligida o‘qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so‘rash:

“Erkin Vohidov hayoti va ijodi” mavzusi yuzasidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o‘quvchilar qanday jargani tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O‘qituvchi adib haqida quyidagi ma’lumotlar bilan o‘quvchilarni tanishtiradi:

“Abdulla Oripov – o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan. Mashhur shoir, tarjimon, O‘zbekiston Qahramoni.



Shoir 1941-yilning 21-martida Qashqadaryo viloyati Koson tumanining Neko‘z qishlog‘ida tug‘ilgan. Otasi Oril bobo ko‘pni ko‘rgan, donishmand kishilardan edi. Elda e’tiborli, ko‘p yillar rahbar bo‘lib kelgan, so‘zni topib so‘zlaydiganlardan edi. Mustaqillik kunlariga yetishib, o‘g‘lining shon-shuhratini ko‘rib vafot etdi. Onasi Turdi Karvon qizi shoortabiat, xalq adabiyotini nozik his qiluvchi fozila ayollardan edi. Erta vafot etdi. Lekin suyukli o‘giining birinchi kitobini ko‘rib ketdi. Ehtimolki, Abdullaning kelajagini bashorat qilib ketdi. Bu tuyg‘ular uning «Onajon» she’rida juda samimiy ifodalangan. So‘ngroq shoir shu nomda butun bir kitob ham yozdi.

Bo‘lajak shoir Neko‘zdagi o‘rta maktabda o‘qidi. Ta’limtarbiyasida oila muhitining ta’siri katta bo‘ldi. To‘rt akaukaning hammasi adabiyot muxlisi edi. Kattasi institutni bitirib, maktabda dars berar, ikkitasi oliv o‘quv yurtlarida o‘qishar, uyida yaxshi kitoblar ko‘p bo‘lar edi. She’rga, kitobga mehr Abdullada maktab yoshida paydo bo‘ldi. Dastlabki she’rlari o‘quvchiligidagi bosildi. Birinchi maslahatchilarini akalari va muallimlari bo‘lishdi.

Abdulla Oripov 1958-yilda o‘rta maktabni bitirib, Toshkentga keladi va hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetining filologiya fakultetiga o‘qishga kiradi. 1963-yilda ushbu fakultetning jurnalistika bo‘limini tamomlaydi va nashriyotlarda ishlaydi. Birinchi kitobi 1965-yilda «Mitti yulduz» nomi bilan bosilib chiqadi. Bu mitti kitobcha adabiyotimizga katta iste’dod kirib kelayotganini ma’lum qiladi. Unga o‘z davrining eng mashhur adiblari, masalan,

Abdulla Qahhor e'tibor bilan qaragan va salohiyatiga yuksak baho bergen edi.

So'ng Abdulla Oripovning o'nlab kitoblari nashr etildi. Huyuk italyan shoiri Dantening «Ilohiy komediya» asarini juda katta mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qildi. Amir Temur haqida «Sohibqiron» nomli drama yozdi. O'z asarlari bilan salqimizning atoqli va ardoqli shoiriga aylandi. Ayni paytda panchadan qancha she'rlari xorijiy tillarga tarjima qilindi. Yurtimizdagina emas, chet mamlakatlarda ham dovruq qozondi. Uni XX asr jahon adabiyotining ko'pgina vakillari tandoildilar.

Bugun Abdulla Oripov davrimizning eng mashhur ijodkorlaridan: «O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi» matni muallifi, O'zbekiston xalq shoiri. Alisher Navoiy nomidagi respublika davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. 1998-yilda shoir va yozuvchilarimiz orasida birinchi bo'lib «O'zbekiston Qahramoni» faxriy unvoni bilan taqdirlangan”.

“O'zbekiston” she'ri bandma-band o'qiladi va tahlil qilinadi. Tushunarsiz va izohtalab so'zlar, tarixiy shaxslar tushuntiriladi.

IV. Mustahkamlash.

1-topshiriq. “O'zbekiston” qasidasida tilga qilingan tarixiy shaxslarni yozing va ularga tavsif bereng. Yurtimiz tarixida ularning qanday o'mi bo'lib?



Tarixiy shaxslar	Tavsif
Hamid Olimjon	Shoir

2-topshiriq. Testni yeching.

1. Abdulla Oripovning birinchi kitobi qanday nom bilan bosilib chiqqan?

- A. “Onajon” B. “Mitti yulduz”
D. “O‘zbekiston” E. “Sohibqiron”

2. Abdulla Oripovning “Sohibqiron” asari qaysi janrda yozilgan?

- A. G‘azal B. Drama
D. Muxammas E. She’riy ertak

3. Dantening “Illohiy komediya” asarini juda katta mahorat bilan kim o‘zbek tiliga tarjima qilgan?

- A. Oybek
B. Abdulla Avloniy
D. Erkin Vohidov
E. Abdulla Oripov

4. Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” qasidasining hajmi qancha?

- A. 14 satrlik 10 banddan iborat
B. 10 satrlik 10 banddan iborat
D. 10 satrlik 14 banddan iborat
E. 10 satrlik 15 banddan iborat

5. Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” qasidasi haqidagi noto‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.

- A. Qasida jami 140 satrni tashkil etadi.
B. Qasida bandlaridagi toq va just satrlar o‘zaro qofiyalanib keladi.
D. Qasida tarkibidagi har bandning so‘nggi bayti bir-biri bilan qofiyalanadi.
E. Barchasi to‘g‘ri

V. Uyga vazifa: darslikda mavzu yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarni bajarish.

MAVZU: ANVAR OBIDJON HAYOTI VA IJODI. SHE'RLAR TAHLILI

Darsning maqsadi:

Ta'limiylar: Anvar Obidjon hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish. “Hayotning har lahzasi go‘zal”she’ri matni bilan tanishitirish va tahlil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda har bir lahzanining qadriga qo‘shish, shukronalik tuyg‘ularini shakllantirish

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma muntaqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so‘z bayligini oshirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalilaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “To‘g‘risini top”, “Guruhlarga ajrat” usuli, kichik guruhlarda tahlash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid materiallar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish
- b) davomatni aniqlash;
- c) ma’naviyat daqiqasi;

Ki har kim ayon etsa yaxshi qiliq,

Yetar yaxshiliqdin anga yaxshiliq

(Alisher Navoiy)

Doskaga ushbu hikmatli so‘z yoziladi. O‘quvchilar hamda rivojlantiruvchi hamkorligida o‘qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so‘rash:

“Abdulla Oripov hayoti va ijodi” mavzusi yuzasidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o‘quvchilar qanday bajarGANI tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O‘qituvchi adib haqida quyidagi ma’lumotlar bilan o‘quvchilarni tanishtiradi:

“O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon 1947-yil 8 yanvarda Farg‘ona viloyati Oltiariq tumanining Poloson qishlog‘ida tug‘ilgan. Qishloq maktabida o‘qib yurGANIdayOQ kinomexanik, traktorchi singari kasblarni o‘rganib, oilasipa yordam berishga harakat qilgan. Maktabni bitirgach esa konda burg‘ilovchi, qishloqda kutubxonachi bo‘lib ishladi. So‘ng Samarqanddagi moliya texnikumida o‘qib, 1966-1969-yillarda harbiy xizmatni o‘tadi.

Armiyadan qaytib ham ma’lum muddat turli kasblarda ishlagach, nihoyat, tuman gazetasiga kelibgina o‘z iqtidorini namoyish etish imkoniga ega bo‘ldi. U 1971-1976-yillarda Oltiariq tumani gazetasida adabiy xodim, bo‘lim mudiri sifatida ishlab, jurnalistlik va adabiy tahrir sohalarida yetarli tajriba orttiradi. Ayni paytda 1974-1979-yillar davomida hozirgi O‘zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetida sirtdan ta’lim oladi.

Garchi shoир dastlabki she’riy mashqlarini 14-15 yoshida boshlagan, harbiy xizmatda ham ancha-muncha she’r bitgan bo‘lsa-da, «Ona yer» deb nomlangan ilk kitobi 1974-yilda – shoир 27yoshga kirganida chop etildi.

Anvar Obidjonning keyingi hayoti va ijodiy faoliyatini poytaxt Toshkentda kechdi. U turli nashriyotlarda, jurnallarda mehnat qildi, 1989-1998-yillarda esa xalqimiz istiqlolining ilk nishonalaridan biri – «Cho‘lpon» nashriyotida bosh muharrir direktor bo‘ldi.

Shundan buyon Anvar Obidjonning ellikdan ortiq kitobi nashr etildiki, bu ijodkorning qanchalar sermahsulligi, o‘quvchilari safining kengligidan darak beradi.

Qolaversa, Anvar Obidjon nihoyatda serqirra ijodkor sifatida tanilgan. Avvalo, u zamonaviy bolalar adabiyotining zabardast vakili sanaladi. Ijodkor xalqimizning aziz

bazandlariga ko'plab she'riy, nasriy kitoblarni, teatr va kino komediyalarini tortiq etgan. Ularning ayrimlarinigina sanab o'tamiz: «Bahromning hikoyalari» (1980), «Masxaraboz bola» (1986), «Juda qiziq voqe» (1987), «Oltin yurakli Avtobola» (1988), «Dahshatli Meshpolvon» (1989), «Meshpolvonning joylari» (1994), «O'q o'tmas bolakay» (2005), «Atrofimizdagি iqbilar» (2014) va b.

Anvar Obidjonning bolalarga atalgan «Qo'ng'iroqli yulgi onchi» nomli ilk komediysi 1983-yilda respublika «Yosh nomoshabinlar» teatrda sahnalaشتirilgan edi. Shundan buyon o'timiz teatrlarida uning «Pahlavonning o'g'irlanishi», «Lopsang - hay-hay» («Qorinbotir»), «Navro'z va Joychechak», «To'tiqul», «Alamazon», «Meshpolvon» kabi filmlari qo'yildi. «O'zbekfilm» kinostudiyasida adib sonariylari asosida «Tilsimoy – g'aroyib qizaloq», «Dahshatli Meshpolvon» filmlari suratga olingan.

Keyingi yillarda adibning «Oltiariq hangomalari», «Haloga qolgan futbolchi», ikkita kitobdan iborat «Tanlangan bo'lar» hamda «Ajinasi bor yo'llar» singari yirik kitoblari juvchilar qo'liga yetib bordi.

Xalqimizning sevimli shoiri Anvar Obidjon 2020-yil 11-aprelda 73 yoshida vafot etdi.

Fidoyi ijodkor Anvar Obidjon «O'zbekiston xalq shoiri» unvoni bilan, «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni va «Shuhrat» medali bilan taqdirlangan”.

Darslikda berilgan she'rlar o'qiladi va tahlil qilinadi.

IV. Mustahkamlash.

Testni yeching.

1. Anvar Obidjonning qaysi she'rida erta tongdan quyosh botgunga qadar kuzatiladigan lavhalarda nihoyatda jonli aks utirilgan?

A. “Hayotning har lahzasi go'zal”

B. “Vatanjon”

- D. “Tinch kunlar”
E. “Yer”
2. “Kilib turgan munchoqko ‘z bola
«Tinchlik» so ‘zin solar yodingga.
Sochlaringdan erib oq tola
Intilasan yana oldinga...” Ushbu misralar qaysi
she ’rdan olingan?
A. “Hayotning har lahzasi go’zal”
B. “Vatanjon”
D. “Tinch kunlar”
E. “Yer”
3. “Tinch kunlar” she ’rida shoir nimani “tarixiy voqe”
deb baholaydi?
A. Mustaqillikka erishgan kuniimizni
B. Boburning Hindiston taxtiga o‘tirishini
D. Tinch o‘tgan har bir kunni
E. Alisher Navoiyning tug‘ilgan kuniini
4. “Vatanjon” she ’rida shoir vatanni nimalarga
o ‘xhatgan?
A. Ota, kulba, yoshlik
B. Soch toiasi, quyosh, bahor
D. Ona, bola, daraxt
E. Oy, olam, gul
5. *Anvar Obidjонни ilk komediyasini belgilang.*
A. “Tilsimoy sarguzashtllari”
B. “Pahlavonning o‘g‘irlanishi”
D. “Alamazon”
E. “Qo‘ng‘iroqli yolg‘onchi”

V. Uyga vazifa: darslikda mavzu yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarni bajarish.

MAVZU: NODAR DUMBADZE HAYOTI VA IJODI. “HELLADOS” HIKOYASI

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: Nodar Dumbadze hayoti va ijodi haqida tumot berish. “Hellados” hikoyasi bilan tanishtirish va tahlil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda vatanga muhabbat, chin atlakka sadoqat kabi sifatlarni rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nafqini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, so‘z boyligini oshirish.

Dars turi: Aralash

Darsda foydalaniladigan usullar: “Aqliy hujum”, “o‘g‘risini top”, “Guruhlarga ajrat” usuli, kichik guruhlarda aralash.

Darsning jihozlari: darslik, kompyuter, mavzuga oid materiallar, tarqatma materiallar, A 4 formatli qog‘ozlar, markerlar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

- a) salomlashish;
- b) davomatni aniqlash;
- c) ma’naviyat daqiqasi;

Xiradmand chin so‘zdin o‘zgasin demas,

Vale borchcha chin ham degulik emas.

(Alisher Navoiy)

Doskaga ushbu hikmatli so‘z yoziladi. O‘quvchilar hamda xituvchi hamkorligida o‘qib tahlil qilinadi.

II. Uy vazifasini so‘rash:

“Anvar Obidjon hayoti va ijodi” mavzusi yuzasidan darslikda berilgan savol va topshiriqlarni o‘quvchilar qanday bo‘lgani tekshiriladi va baholanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O‘qituvchi adib haqida quyidagi ma’lumotlar bilan o‘quvchilarni tanishtiradi:



“Gruzin xalqining ardoqli adibi Nodar Dumbadze asarlarida ifoda etilgan ezgulik, insonparvarlik,adolatsevarlik, xalqqa muhabbat tuyg‘ulari uni boshqa xalqlar o‘quvchilari uchun ham suyukli yozuvchiga aylantirgan. Jumladan, Nodar Dumbadzening o‘nlab hikoyalari, «Kukaracha» qissasi, «Oq bayroqlar», «Abadiyat qonuni» singari romanlari mohir tarjimon Nizom Komil tomonidan ona tilimizga o‘girilgan. «Abadiyat qonuni» asari asosida o‘zbek san’atkorlari tomonidan yaratilgan ko‘p qismli videofilm namoyish etilgach, adib ijodiga qiziqishi bizning yurtimizda yanada kuchaygan.

Nodar Vladimirovich Dumbadze 1928-yilning 14-iyulida Gruziya poytaxti Tbilisi shahrida tug‘ilgan. Yozuvchining ilk hikoyalari to‘plami «Qishloq bolalari» nomi bilan 1958-yilda chop etilgan. Uning dastlabki yirik asarları «Men, buvim, Iliko va Illarion» qissasi 1960-yilda, «Quyoshni ko‘ryapman» nomli romani esa 1962-yilda yaratilgan. Yozuvchining bu asarlarida Ikkinchi jahon urushi yillaridagi gruzin qishloqlaridagi og‘ir va mashaqqatli hayot manzaralari, bir-biriga o‘xshamaydigan taqdir egalari obrazni yorqin aks ettirilgan.

Adib zamonaviy mavzulardagi asarlarida insonlarning bir-biriga munosabatidagi odamiylik, oqibat singari fazilatlarni ulug‘laydi. Uning 1967-yilda yozilgan «Quyosh kechasi», 1972-yilda chop etilgan «Oq bayroqlar» romanlari bunga misol bo‘la oladi.

Nodar Dumbadzening 1978-yilda yaratilgan «Abadiyat qonuni» asari nafaqat Gruziyaning o‘zida, balki ko‘plab boshqa yurtlarda ham izlab topib o‘qiladigan asarlar qatoridan joy oldi. Bu romanda insonning hayotdagi o‘rni, undan talab etiladigan fidoyilik, halollik, vijdonlilik, adolatparvarlik xususiyatlari to‘g‘risida keng mushohada yuritilgan. Adibning aksariyat

...urlaridagi voqealari, insonlar taqdiri o‘zining o‘tkir hamatizmi bilan birga samimiy yumori bilan ham o‘quvchi uzoq saqlanib qoladi”.

V. Mustahkamlash.

1-topshiriq. Hikoyadagi Yanguli va Jamolga xos bo‘lgan umumiy va xususiy jihatlarni jadvalga joylashtiring. (Quyidagi lumotlar aralash tarzda beriladi, o‘quvchilar ularni shu tibda ajratishi lozim).



Yanguli:


Yo‘lto‘sar

Qo‘pol

Urishqoq

Boshqaruvo

Grek



Jamol:

Tarbiyali

Madaniyatli

Musiqachi

Mehribon

Gruzin

Umumiy jihatlar:

Vatanparvar

Insonparvar

Onasiz yetim

Mustaqil fikrlovchi

2-topshiriq. Testni yeching.

1. “Hellados” hikoyasida Yanguli kimga “skripka” deb nomi mazah qilar edi?

A. Kokani

B. Jamolni

D. Petyani

E. Femani

2. “Hellados” hikoyasidagi Aniko kim?

A. Jamolning xolasi

B. Yangulining do’sti

D. Kokaning opasi

E. Jamolning onasi

3. “Hellados” hikoyasida tasvirlangan “tbilisiliq” rangpar laqma”kim edi?

A. Yanguli

B. Jamol

D. Koka

E. Pancho

4. Gretsiyaga yo‘l olgan greklar qaysi kemada yo‘lgan chiqishadi?

A. “Ellada”

B. “Hellados”

D. “Posedon”

E. “Suxumi”

5. “Hellados” hikoyasida Yangulining qayerida lotin harflarida ko‘kish rangda “Hellados” so‘zi naqshlangan edi?

A. O‘ng bilagida

B. Oyog‘ida

D. Chap to‘shida

E. Ko‘ksida

V. Uyga vazifa: Darslikda mavzu yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarni bajarish.

Uchqorakda o'tilgan mavzular yuzasidan nazorat savollari

1. Adabiyotning asosiy quroli nima?

- A. She'r B. Qalam
D. Badiiy so'z E. Kitob

2. Topishmoqlar haqida bildirilgan qaysi fikr uzo'tg'ri?

A. Topishmoqda yashirin ma'no ko'pincha majoz shaklda tiftililadi.

B. Topishmoqlarda o'xshatish, sifatlash, mubolag'a, ichraytirish, metafora, jonlashtirish kabi badiiy tasvir ustalaridan keng foydalananiladi.

D. Topishmoqlar faqat she'riy shaklda, ixcham, sodda va ravon, qofiyali uslubda to'qiladi.

E. Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari tarkibida ham uchrashi mumkin.

3. O'zbekiston Milliy bog'ida joylashgan Alisher Navoiy haykali ustini o'rab turgan moviy gumbaz ostiga boirning qaysi misralari bitilgan?

A. Kamol et kasbkim, olam uyidin

Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o'tmak biaynih

Erur hammomdin nopol chiqmoq.

B. Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q,

Futuvvat barcha qilmoqdur, demak yo'q.

D. Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig',

Yor o'lung bir-biringizgaki, erur yorlig' ish.

E. Iistasangkim, ko'rmagaysen bevafolig', ey rafiq,

Qilma olam ahli birla oshnolig', ey rafiq.

4. Ezop yordami bilan garovda yutib chiqqan shaxs nomi berilgan qatorni toping.

A. Likurg B. Krez

D. Ksanf E. Babriy

5. "Maqol" so'zining ma'nosi nima?

- A. Arabcha “aql” degan ma’noni bildiradi .
- B. Forscha “pand” degan ma’noni bildiradi.
- D. Arabcha “so‘z” degan ma’noni bildiradi.
- E. Forcha “naql” degan ma’noni bildiradi.

6. Ezopning “Eshak bilan baqalar” masalidan qanday xulosa kelib chiqadi?

- A. Yangi do’st topganda eskisini unutma.
- B. Birni ko‘rib shukr qil, birni ko‘rib fikr qil.
- D. Og‘irning ostidan, yengilning ustidan o‘tma.
- E. Ko‘rpangga qarab oyoq uzat.

7. Maqol haqida bildirilgan noto‘g‘ri hukmni aniqlang.

- A. Maqolda xalqning tarixi, urf-udumi, turmush-tarzi ruhiyati aks etidi.
- B. Maqollar xilma-xil mavzularda bo‘ladi.
- D. Maqol she’riy shaklda ham bo‘lishi mumkin.
- E. Maqollarda so‘zlar har doim ko‘chma ma’noda qo‘llanadi.

8. “Uch og‘a-ini botirlar” ertagida kim dasturxoniga tortilgan nonni taxlagan kishining otasi novvoy ekanligini aytgan?

- A. Kenja botir
- B. To‘ng‘ich botir
- D. O‘rtancha botir
- E. Podshoh

9. Hamid Olimjon hayoti va ijodiga oid to‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.

- A. Adibning ilk she’rlari “Ko‘klam” gazetasida chiqaboshlagan.
- B. Adibning “Samarqand” nomli birinchi she’riy to‘plami 1929-yilda chiqqan.
- D. Shoirning ilk she’rlari 1926-yilda chiqaboshlagan.
- E. Adibning “Muqanna” va “Jinoyat” nomli tarixiy mavzudagi she’riy dramasi bor.

10. “Yovvoyi echkilar bilan cho‘pon” masalidan qanday xulosa chiqadi?

- A. Yaxshilikka hamisha yaxshilik bilan javob qaytar.
B. Og‘irning ostidan, yengilning ustidan o‘tma.
D. Behuda chiranish belni chiqaradi.
E. Yangi do‘stlarni eskilaridan afzal tutuvchilar bilan
o‘tlashishga shoshilma.

11. “Semurg“ yoki “Parizod va Bunyod” nomli ertak-toston muallifi kim?

- A. Hamid Olimjon B. Maqsud Shayxzoda
D. Qudrat Hikmat E. Zafar Diyor

12. Topishmoqlar tuzilishiga ko‘ra necha xil bo‘ladi?

